BOZOROVA MUSLIMA QODIROVNA
SAIDOVA PARVINA MIRZO QIZI

# MUTAXASSISLIKKA KIRISH

## II-QISM

O‘QUV QO‘LLANMA



**Kitob quyidagi ko'rsatilgan muddatda topshirilishi shart**

**Oldingi foydalanishlar miqdori**___________

| | |
|---|---|
| | |

Kitob
mudda
Old
miq
Kitob

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Bozorova Muslima Qodirovna**
**Saidova Parvina Mirzo qizi**

# MUTAXASSISLIKKA KIRISH

## II QISM

*(Amaliy mashg'ulot uchun)*

**O'quv qo'llanma**

**Termiz – 2025**

**UO'K: 37.013(075.8)**
**KBK: 74.00ya73**
**B 79**

Bozorova Muslima Qodirovna, Saidova Parvina Mirzo qizi. Mutaxassislikka kirish II-qism [o'quv qo'llanma / M.Q.Bozorova, P.M.Saidova. – Termiz, Termiz publishing center 2025. - 139 b.

Mazkur "Mutaxassislikka kirish" (II-qism) fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun tayyorlangan o'quv qo'llanma 60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishidagi talabalarga mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak mutaxassislarni o'qituvchilik kasbining o'ziga xos xususiyatlari bilan chuqurroq tanishtirish, kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarda axborot madaniyatinitarkib toptirish, o'qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish, pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan. Har bir amaliy mashg'ulotda nazariy bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi topshiriqlar, ekspres savol-javoblar, keyslar, kossvordlar va mavzulashtirilgan testlar keltirilgan. Shuningdek, mavjud real hayotiy vaziyatlar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar orqali talabalarni o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlash, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan.

O'quv qo'llanma Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tomonidan 30.08.2024-yildagi 1-son yig'ilish bayoni asosida tasdiqlangan "Mutaxassislikka kirish" fani dasturi asosida tayyorlangan.

**Taqrizchilar:**

**A.A.Allamuratov** – Termiz davlat pedagogika instituti "Texnologiya va geografiya" kafedrasi mudiri p.f.f.d., PdD., dots

**D.M.Boboqulova** – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Pedagogik a va psixologiya" kafedrasi mudiri, p.f.f.d., PhD., dots.

O'zbekiston Respiblikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 09-iyuldagi 258-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan. № 213625

**ISBN: 978-9910-567-68-1**

**© Bozorova M. Q., Saidova P. M., 2025**
**© TERMIZ PUBLISHING CENTER, 2025-yil**

## KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimining tubdan yangilanishi va globallashuv jarayonlari oliy ta'lim muassasalariga mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, pedagogika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tizimli va bosqichma-bosqich rivojlantirish dolzarb vazifaga aylangan. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, davlat ta'lim standartlarining yangilanib borishi, kredit-modul tizimi asosida o'qitishning joriy etilishi ushbu fan mazmuni va metodikasiga yangicha qarashni talab etdi.

"Mutaxassislikka kirish" fani oliy ta'lim tizimidagi Pedagogika yo'nalishi talabalari uchun kasbiy yo'naltirilgan, metodologik asoslangan, nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishga qaratilgan muhim o'quv kursi hisoblanadi. Ushbu fan bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tafakkurini rivojlantirish, ularning kasbiy motivatsiyasini oshirish, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanishga tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur o'quv qo'llanma 300 soatlik o'quv yuklamasi asosida davlat ta'lim standarti va modul-kredit tizimi talablari asosida ishlab chiqildi. O'quv qo'llanma tarkibida pedagogik kasbning ijtimoiy-ma'naviy mohiyati, o'qituvchilik faoliyatining zamonaviy talablari, ta'limdagi innovatsion texnologiyalar, kasbiy kompetensiyalar va pedagogik metodologiya kabi dolzarb mavzular o'z ifodasini topgan. Shuningdek, talabalarni real pedagogik faoliyatga tayyorlashda integrallashgan yondashuvni ta'minlaydi, nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, zamonaviy mehnat bozorida yuqori malakali va raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlashda mazkur qo'llanma muhim metodik manba bo'lib xizmat qiladi.

O'quv qo'llanmani ishlab chiqishda ta'lim-tarbiyaning milliy an'analarini, pedagogik faoliyatning ijtimoiy-ma'naviy mohiyatini, shuningdek, zamonaviy innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirishga harakat qildik. Umid qilamizki, ushbu qo'llanma sizga o'z pedagogik kasbingiz mohiyatini teran anglash, o'z ustingizda muntazam ishlash va zamonaviy ta'lim tizimining faol ishtirokchisiga aylanish yo'lida mustahkam bilim va ko'nikmalarni beradi.

Hurmatli talabalar! Sizga muvaffaqiyatli o'qish, pedagogik kasb sirlarini chuqur o'zlashtirishingizda omad tilaymiz. Har bir sahifa sizni kasbiy kamolot sari ilhomlantiradi, degan umiddamiz. Ishonamizki, siz ushbu bilimlarni o'zingiz uchun, shu bilan birga, kelajak avlodlarning qalbini nurlantirish, jamiyatga munosib hissa qo'shish yo'lida amaliyotda qo'llay olasiz. Yodingizda tuting: chinakam o'qituvchi bo'lish — bu faqat kasb emas, balki hayot tarzi va jamiyat oldidagi ulug' mas'uliyatdir.

**Hurmat bilan, M.Q.Bozorova va P.M.Saidova!**

DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 34780

# 1-AMALIY MASHG'ULOT
## TALABALARNI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASHKIL ETILADIGAN O'QUV VA PEDAGOGIK AMALIYOTIGA TAYYORLASH



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Talabalarni umumta'lim maktablarida o'quv va pedagogik amaliyot jarayonlariga tayyorlash;
- Amaliyotning mazmuni, vazifalari va talablarini tushuntirish orqali ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
- Amaliyot davomida bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar va talablar bilan tanishtirish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Talabalar umumta'lim maktablarida o'quv va pedagogik amaliyotni tashkil etish tartibi, amaliyotdagi asosiy vazifalar va pedagogik faoliyat usullarini tushunib, amaliyotga tayyor holatda bo'lishadi.
- Talabalar amaliyot davomida o'z bilim va ko'nikmalarini samarali qo'llashga tayyor bo'lishadi.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page .


*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Talabalarni umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan o'quv va pedagogik amaliyotiga tayyorlash mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Pedagogik amaliyotning mazmun-mohiyati nimadan iborat?
2. Pedagogik amaliyotning asosiy maqsad va vazifasi nima?
3. Pedagogik faoliyat qanday kasblarni o'z ichiga oladi?
4. "Kasbiy faoliyat" deganda nimani tushunasiz?
5. O'qituvchining jamiyatdagi o'rni qanday?
6. Pedagogik amaliyot orqali qanday ko'nikmalar shakllanadi deb o'ylaysiz?

*3-ilova*

**Kichik guruhda ishlash**

**Mavzu:** "Talabalarni umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan o'quv va pedagogik amaliyotiga tayyorlash"

**Guruhda ishlashdan maqsad:** Talabalarning mavzuning chuqurroq tushunishini ta'minlash, mustaqil fikrlash va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

**Topshiriq tavsifi:** Har bir guruh o'ziga ajratilgan vazifani bajaradi va natijalarini taqdimot shaklida himoya qiladi.

**1-guruh: Pedagogik amaliyotning maqsadini tahlil qiling.**

- ➢ Nega pedagogik amaliyot tashkil qilinadi?
- ➢ Talabalar bu orqali nimalarga erishadi?
- ➢ Pedagogik amaliyotning ta'limdagi o'rni qanday?

**Natija:** Diagramma yoki jadval shaklida taqdim qilish.

**2-guruh: Pedagogik amaliyotning vazifalarini aniqlang.**

- ✓ Pedagogik amaliyotning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
- ✓ O'qituvchi va talabalar uchun qanday vazifalar belgilangan?
- ✓ Pedagogik amaliyot jarayonida talabalarda qanday kompetensiyalar shakllanadi?

**Natija:** Plakat yoki slayd ko'rinishida taqdim qilish.

**3-guruh: Pedagogik amaliyotning ahamiyatini ijtimoiy va kasbiy nuqtai nazardan asoslab bering**

- Pedagogik amaliyot mutaxassislik faoliyatida qanday o'rin tutadi?
- Kasbiy rivojlanishda pedagogik amaliyot qanday imkoniyatlarni yaratadi?
- Pedagogik amaliyotni bilmagan mutaxassis qanday muammolarga duch kelishi mumkin?

**Natija:** Rolli o'yin yoki misollar asosida tahlil qilish.

**4-guruh: Pedagogik amaliyotning dolzarb muammolari va rivojlanish istiqbollarini tahlil qiling**

- Pedagogik amaliyotning o'quv jarayonida qanday muammolarga duch keladi?
- Pedagogik amaliyot kelajakda qanday natijalarga olib kelishi mumkin?
- Jahon tajribasida pedagogik amaliyot jarayoniga doir misollar keltiring.

**Natija:** Infografika yoki taqdimot orqali himoya qilish.

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.



*4-ilova*



***"Puzzle" metodi mavzuga oid atama, jumla, ta'rif, asosiy ma'lumotlar qog'ozga yozilib, bir nechta bo'laklarga bo'lib, aralashtirilib yuboriladi va bu qog'ozlar konvertga solinib guruhlarga beriladi. O'qituvchi tomonidan vaqt belgilangandan so'ng talabalar bu bo'laklar ichidan faqat bitta ma'lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar.***

*5-ilova*

**"Case study (real vaziyatlarni tahlil qilish)" topshirig'i asosida mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash**

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Pedagogika fakulteti Pedagogika ta'lim yo'nalishida 1-bosqich talabalari "Mutaxassislikka kirish" fanini o'rganmoqda. Ushbu fan orqali ular o'z kasbiy yo'nalishi, pedagogik faoliyatning mohiyati, zamonaviy ta'lim tizimining talablari va o'qituvchilik kasbining jamiyatdagi o'rni bilan tanishmoqda.

Guruhdagi talabalar orasida pedagog bo'lishni orzu qilib kelganlar ham, faqat grant yoki ota-onasining maslahati bilan bu yo'nalishni tanlaganlar ham bor. O'qituvchi pedagogik faoliyatning maqsadi va vazifalarini tushuntiradi:

- Pedagogik faoliyatning mohiyati va ahamiyatini anglash;
- Kelajakda o'qituvchi sifatida o'zini namoyon qilishga tayyorgarlik
- Kasbiy etikani tushunish;
- Ta'lim tizimidagi islohotlar va innovatsion yondashuvlar bilan tanishish;

Muammo:

Birinchi darslardan so'ng, ayrim talabalar o'z kasbini chin dildan sevayotgan bo'lsa-da, boshqalar hali bu sohaning mas'uliyati va murakkabligini to'liq anglab yetmagan.

Shu munosabat bilan, o'qituvchi quyidagi topshiriqni beradi:

"Agar siz pedagogik faoliyat haqida chuqur bilim olmasangiz va o'qituvchilik kasbining mohiyatini tushunmasangiz, bu sizning kelajakdagi ta'limiy faoliyatingizga qanday ta'sir qiladi?"

Topshiriq:

Talabalar uch guruhga bo'linib, quyidagi asosiy savollar bo'yicha tahlil tayyorlashadi:

1. Umumta'lim maktablarida o'quv va pedagogik amaliyot mazmuni, amaliyotning asosiy vazifalari va maqsadlari nimalardan iborat?
2. Amaliyot talabalarga qanday kasbiy ko'nikmalar beradi?
3. Amaliyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari qanday?

Muhokama savollari:

- Umumta'lim maktablarida o'quv va pedagogik amaliyot talabalar kasbiy tayyorgarligida qanday o'rin tutadi?
- Amaliyot davomida o'zini qanday baholash va o'z-o'zini tahlil qilish usullari samarali?
- Amaliyotdan olingan bilim va ko'nikmalarni keyingi ta'lim yoki ish faoliyatida qanday qo'llash mumkin? Xulosa uchun: Har bir guruh o'z tahlili asosida quyidagilarga javob beradi:
- O'quv va pedagogik amaliyotga qanday tayyorgarlik ko'rish kerakligini endi qanday tasavvur qilasiz?
- Kelgusida amaliyot davomida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarga qanday yechimlar taklif qilgan bo'lardingiz?
- Bugungi mashg'ulotdan keyin o'zingizga qanday vazifa yoki maqsad qo'ydingiz?

*6-ilova*

**"Klaster" metodi asosida "Pedagogik amaliyot"ning bo'lajak mutaxassis kasbiy yuksalishidagi o'ziga xos bo'lgan ahamiyatini tarmoqlash topshirig'i**



*7-ilova*

**"Venn diagrammasi" metodini qo'lash asosida pedagogik va o'quv amaliyotining o'xshashlik va farqli jihatlarini yozish topshirig'i**




**KROSSVORD**




**Krossvord savollari:**

**Eniga**

1 Amaliyot rahbarining vazifasi nechtadan iborat?

4 Maktabdagi amaliyot rahbarining vazifasi nechta?

6 Har bir amaliyotchi ….. amaliyotni belgilangan muddatda o'tashi lozim. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying?

**Bo'yiga**

2 Hujjat ishlarining borishida nechta yo'l mavjud?

3 Qaysi daftarda - bunda talabaning amaliyot obektida olib boradigan barcha ishlari aks etishi lozim deyilgan?

5 Pedagogik amaliyot davomida yuritiladigan hujjatlar soni nechta?

7 "Mashqda qanchalik qiyin bo'lsa, jangda shunchalik oson bo'ladi!" ushbu fikrlar muallifi kim?

8 O'qituvchi kalendar-tematik rejasi nechta bo'limdan iborat?



**Mutaxassislikka kirish fanidan mavzu yuzasidan test**

**1. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning shunday bosqichiki, bunda har bir o'quvchiga ta'lim-tarbiya berishda oliy o'quv yurtida to'plagan bilim hamda o'quvlarining hammasidan kompleks tarzda foydalanishga to'g'ri keladigan jarayon nima deyiladi?**

A) o'qitish

b) o'rgatish

c) pedagogik amaliyot

d) kuzatish

**2. "Bunda talabaning amaliyot obektida olib boradigan barcha ishlari aks etishi lozim. Bundan tashqari unda guruh tarbiyachilari va tarbiyalanuvchilar haqida ma'lumotlar, kun davomida o'tkaziladigan tadbirlar haqida ma'lumotlar, amaliyot haqidagi taassurotlar qayd etiladi". Ushbu ta'rif qaysi tushunchaga tegishli?**

A) kundalik daftar

b) shaxsiy ish reja

c) tadbirlar ssenariyasi

d) dars tahlil daftari

**3. Talabaning amaliyotdan maqsadi nimalardan iborat? 1.Olingan bilimlarining darajasini bilish. 2. O'zining pedagogik qobiliyatlarini baholash. 3. Psixologik jihatdan darsga tayyorgarligi. 4. Pedagoglar bilan bilim almashish. 5. Tartib intizomga bo'ysunmaslik.**

a) 1.2.3.4.5.

b) 1.2.3.4.

c) 1.2.3.

d) 1.2.3.5.

**4. Bu davrda amaliyotchining ..................... ham muhim rol o'ynaydi, u o'quvchilarga namuna bo'lishi kerak. Nuqtalar o'rnida qoldirilgan so'zni aniqlang.**

A) muomalasi

b) tashqi qiyofasi

c) me'yoriy hujjatlari

d) to'g'ri javob yo'q

**5. Mashqda qanchalik qiyin bo'lsa, jangda shunchalik oson bo'ladi!". Ushbu fikr muallifini to'g'ri belgilang.**

A) Kaufman
b) Suvorov
c) Nalivkin
d) A.Temur

**6. Tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun, qoidaga muvofiq, talabalar har bir sinfga nechtadan biriktirib qo'yiladi?**

a) bittadan
b) ikkitadan
c) uchtadan
d) to'rttadan

**7. Pedagogik amaliyot davomida amaliyotchi-talabaning asosiy vazifalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang. 1. Amaliyot joyiga o'z vaqtida o'qituvchi formasida kelish. 2. Amaliyot rahbari bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lish. 3. Biriktirilgan sinf o'quvchilarini o'z o'quvchisidek qarash va ular bilan yaqindan tanishish. 4. Dars tahlili davomida barcha jarayonlarga diqqat qilish. 5. O'quvchilarga avtoritar uslubda muloqot qilish.**

a) 1.2.3.4.5.
b) 1.2.3.4.
c) 1.2.3.
d) 1.2.3.5.

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**



Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti, 2024 yil 218 bet



## 2-AMALIY MASHG'ULOT
## ZAMONAVIY DARS VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Talabalarga zamonaviy darsning mazmuni, shakl va metodlari, shuningdek unga qo'yiladigan didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablar haqida chuqur bilim berish;
- Talabalarda samarali darsni loyihalash, o'tkazish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.
- Talabalarni dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanishga tayyorlash.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Zamonaviy darsning asosiy xususiyatlarini (interaktivlik, talaba faolligi) tushunadilar;
- Darsga qo'yiladigan asosiy didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarni biladilar;
- Dars jarayonida AKT vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish zaruratini anglaydilar;
- Zamonaviy o'qituvchi uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's

Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.

*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Zamonaviy dars va unga qo'yiladigan talablar mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Dars tushunchasiga ta'rif bering va uning asosiy maqsadi nima?
2. Zamonaviy darsda o'quvchi roli va vazifasi qanday bo'ladi?
3. Zamonaviy darsda qaysi metodlar afzal hisoblanadi?
4. Zamonaviy darsda axborot texnologiyalarining o'rni qanday?
5. Darsda interfaol metodlardan biri misol qilib keltiring.
6. Zamonaviy dars necha turdan iborat bo'ladi?
7. O'qituvchining darsga tayyorgarligining bosqichlarini ayting.
8. Darsga qo'yiladigan talablarni ayting?

*3-ilova*

**"Pedagogik mozaika" interfaol metodi oraqali zamonaviy dars va unga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish**



***"Pedagogik mozaika" – bu interfaol ta'lim metodlaridan biri bo'lib, talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali mavzuni chuqur o'rganadi. Har bir guruh alohida pedagogik g'oya yoki tamoyilni tahlil qiladi, so'ngra boshqa guruh a'zolari bilan o'z bilimlarini almashib, umumiy xulosani shakllantiradi. Bu metod mavzuni qisqa vaqt ichida samarali o'zlashtirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.***

**1-bosqich: Boshlang'ich tayyorgarlik (2 daqiqa)**

◆ Guruhlar 4-5 kishidan tashkil topgan guruhlarga bo'linishadi.
◆ Har bir guruhga 1 ta asosiy pedagogik g'oya beriladi.
◆ Har bir guruh o'z mavzusini muhokama qilishga tayyorlanadi.

**2-bosqich: Muhokama va ma'lumotlarni to'plash (5 daqiqa)**

◆ Har bir guruh o'z mavzusi bo'yicha muhim jihatlarni muhokama qiladi.
◆ Mavzuga oid zamonaviy dars va uning turlari xususida fikrlarni aniqlaydi.
◆ Guruh a'zolaridan qisqa xulosalar yozib oladi.



**3-bosqich: "Mozaika" yaratish (5 daqiqa)**

◆ Guruh a'zolari boshqa guruh a'zolari bilan almashinib, o'z mavzusi bo'yicha tushuntirish beradi.

◆ Har bir ishtirokchi turli guruhlar fikrlarini tinglab, umumiy xulosalarni (mozaikani) shakllantiradi.

**4-bosqich: Yakuniy xulosa va baholash (3 daqiqa)**

◆ Har bir guruhning vakili qisqacha o'z mavzusini sharhlaydi.

◆ Barcha guruhlarning xulosalari jamlanadi va umumiy pedagogik model shakllantiriladi.

◆ O'qituvchi qisqa tahlil qilib, mavzuning dolzarbligi haqida fikr bildiradi.

| Guruhlar uchun mavzular: | |
|---|---|
| 1-guruh | Dars tushunchasining mazmunini yoriting! |
| 2-guruh | Zamonaviy darsda o'quvchi roli qanday bo'ladi? |
| 3-guruh | Zamonaviy darsda qaysi metodlar afzal hisoblanadi? |
| 4-guruh | Zamonaviy dars necha turdan iborat, ularni izohlang? |
| 5-guruh | O'qituvchining darsga tayyorgarligining bosqichlarini ayting? |
| 6-guruh | Pedagog kadrlar malakasini oshirishda kompetentlikning roli qanday? |

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*4-ilova*

**Zamonaviy dars va unga qo'yiladigan talablarni "BOHO" metodi orqali tahlil qiling.**

**"BARChA OMILLARNI HISOBGA OL!" (BOHO) METODI**

BOHO – bu shaxs e'tiborini muayyan omillarga qaratishga xizmat qiluvchi metod sanalib, uni qo'llashdan ko'zlangan maqsad shaxs ongini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish, tafakkurini boyitishdir.

Metod qanchalik aniq maqsad asosida qo'llanilsa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Agar o'quvchi (talaba) u yoki bu fikrni ochiq aytishga tortinsa, u holda metodni qo'llash hech qanday samara bermaydi.

Mashg'ulotlar jarayonida metoddan foydalanishda quyidagi savollarga javob

topgan holda mavzuni samarali o‘zlashtirish imkonini beradigan omillarning ro‘yxatini tuzib olish maqsadga muvofiqdir:

Mavzuni o‘zlashtirishda qaysi omillar hisobga olindi?

Mavzuni o‘zlashtirishda qanday omillar hisobga olinmadi?

Ro‘yxatga yana qanday omillarni kiritish mumkin?

Masalaning yana qaysi jihatlariga e’tibor berish zarur?



*5-ilova*



***"Bir daqiqa konsepti" metodi bu talabalarni dars davomida yoki dars oxirida o‘z fikrlarini mustaqil tarzda bayon qilishga undaydigan tezkor va samarali metod. U qisqa vaqt ichida talabalar o‘rganilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozib, tahlil qilishiga yordam beradi.***

**Qo‘llash bosqichlari:**

*1-bosqich:* **Savol berish** – Dars oxirida yoki muhim qismidan so‘ng talabalar uchun savol beriladi.

*2-bosqich:* **1 daqiqa ichida javob yozish** – Har bir talaba mustaqil ravishda o‘z fikrini yozadi.

*3-bosqich:* **Yig‘ish va tahlil qilish** – O‘qituvchi yozilgan javoblarni tahlil qilib, eng qiziqarli yoki muhim fikrlarni keyingi darsda muhokama qiladi.

*6-ilova*

**An’anaviy va noan’anaviy dars va unga qo‘yiladigan talablarni jadvali orqali tahlil qiling.**

| An’anaviy dars | Noan’anaviy dars |
|---|---|
| | |

**KROSSVORD**





**Krossvord savollari:**

**Eniga**

1. Darsning turlari va tuzilishi nechta.
5. Bo‘lajak darsni tashkil etishning turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish bu - ?

**Bo‘yiga**

1. Har bir dars uchun qo‘yiladigan talablar nechtadan iborat?
2. Didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir bu - ?
3. Darsni boshlash uchun birinchi narsa - ……. ni yoqish - faol e’tiborni jalb qilish, bolaning darsga bo‘lgan qiziqishini, "bu nima?" Refleksini taminlash?
6. Yangi bilimlarni bayon qilish darsinituzilishi nechta qismdan iborat?
7. Ta’lim tashkil etishning asosiy shakli nima?
8. Kim yuqori asabiy faoliyatga oid bir qator ko‘rsatmalari mavjud, shundan: a) miya yarim sharlariga kirib boradigan yangi ma’lumotlar miqdori maktab o‘quvchilarining funktsional va yoshiga bo‘lishi kerak.
b) har bir dars oxirida, o‘quv kuni, o‘quv choragi va o‘quv yili oxiriga qadar ma’lumotlar miqdori kamayishi kerak ajratgan.

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. Ta’lim tashkil etishning asosiy shakli bu – ?**
a) darsliklar

b) dars
c) intizom
d) amaliyot

**2. Har bir o'quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o'quvchilarning mashg'ulot jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratadigan jarayon bu – ?**

a) darsliklar
b) dars
c) intizom
d) amaliyot

**3. Darsning turlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang. 1. Aralash (kombinatsion dars) 2. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi. 3. O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi. 4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi. 5. Laboratoriya darslari 6. Amaliy darslar 7. Konsultativ darslar**

a) 1.2.3.4.5.6.7.
b) 1.2.3.4.5.6.
c) 1.2.3.4.5.
d) 1.2.3.5.6.7.

**4. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi o'qituvchining darsga tayyorgarligining qaysi bosqichida amalga oshadi?**

A) tashxislash
b) bashoratlash
c) loyihalashtirish va rejalashtirish
d) empatik

**5. "Faoliyatsiz ishlab chiqarish vositalari ham, belgilari ham, san'at namunalari ham yo'qdir: faoliyatsiz insonlarning o'zi ham yo'q hisobi". Ushbu ta'rif muallifini aniqlang?**

A) Shedrovitskiy
b) Leontev
c) Pavlov
d) Ojegov

**6. Bo'lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olishi o'qituvchining darsga tayyorgarligining qaysi bosqichida amalga oshadi?**

A) tashxislash
b) bashoratlash
c) loyihalashtirish
d) rejalashtirish

**7. "Faoliyat hayotning birligidir va psixikaning asoslangan aksidir" deb ta'kidlagan olim kim?**

A) Shedrovitskiy



b) Leontev
c) Pavlov
d) Ojegov

**8. Didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi kabi holatlar namoyon bo'lishi o'qituvchining darsga tayyorgarligining qaysi bosqichida amalga oshadi?**

A) tashxislash
b) bashoratlash
c) loyihalashtirish
d) rejalashtirish

**9. Darsga qo'yiladigan talablar qaysi javovda to'g'ri ko'rsatilgan?**

a) tarbiyalash
b) o'qitish
c) rivojlantirish
b) barcha javoblar to'g'ri

**10. O'qituvchining darsga tayyorgarligi nechta bosqichga bo'linadi?**

a) 4 ta
b) 5 ta
c) 6 ta
d) 7 ta

**11. 1-sinf o'quvchilari uchun sanash davomiyligi necha daqiqadan oshmasligi kerak?**

a) 4-5 daqiqa
b) 5-7 daqiqa
c) 6-9 daqiqa
d) 8-9 daqiqa

**12. 1-sinf o'quvchilari uchun yozuv necha daqiqadan oshmasligi kerak?**

a) 10 minut
b) 12 minut
c) 15 minut
d) 17 minut

**13. Jismoniy tarbiya daqiqalari darsning necha daqiqalarini o'z ichiga oladi?**

a) 15-20 minuti
b) 20-25-minuti
c) 20- 26 minuti
d) to'g'ri javob berilmagan

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Mustaqil ish uchun Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



DENOV TADBIRKORLIK
VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI ARM
№ 34780

## 3-AMALIY MASHG'ULOT
## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA SOG'LOM TURMUSH MADANIYATINI TARKIB TOPTIRISH



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarni shakllantirish, uni kasbiy faoliyatga muhimligini anglatish;
- Talabalarda sog'lom hayot tarziga bo'lgan ongli munosabatni rivojlantirish va ularning shaxsiy hamda kasbiy hayotida sog'lom turmush madaniyatini qaror toptirishga yo'naltirish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Sog'lom turmush madaniyati tushunchasining mazmunini tushunadilar, pedagogik faoliyatdagi o'rni va ahamiyatini anglaydilar;
- O'qituvchining jismoniy va ruhiy sog'lig'i ta'lim sifatiga qanday ta'sir qilishini baholay oladilar;
- Sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, psixologik barqarorlik va gigiena qoidalari haqida amaliy bilimlarga ega bo'ladilar;
- O'quvchilarga namuna bo'la oladigan sog'lom hayot tarafdori bo'lishga intiladilar.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. - 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.





9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.


*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik faoliyatga tayyorlashda sog'lom turmush madaniyatini tarkib toptirish mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Sog'lom turmush tarzi deganda nimani tushunasiz?
2. Bo'lajak o'qituvchining sog'lom turmush tarzi nega muhim?
3. Jismoniy faollik pedagogik faoliyat uchun qanday ahamiyatga ega?
4. Pedagogik faoliyatda mehnat va dam olish rejimini to'g'ri tashkil etish nega muhim?
5. O'qituvchi o'zining sog'lig'i haqida qanchalik mas'uliyatli bo'lishi kerak?
6. Bo'lajak o'qituvchining salbiy odatlardan xoli bo'lishi nimani anglatadi?
7. Zamonaviy o'qituvchining kundalik tartibi qanday bo'lishi kerak?
8. O'qituvchining sog'lom turmush tarzini namuna qilib ko'rsatishi qanday ta'sir qiladi?
9. Meditatsiya va psixologik dam olish usullari o'qituvchi uchun qanday foyda beradi?
10. Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish bo'yicha qanday tashabbuslarni taklif qilasiz?

*3-ilova*

**Talabalarga "Tarmoqli tafakkur" metodi orqali ma'lumotlarni tarmoqlash, bog'liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o'tadi.**



***bu interfaol metod bo'lib, talabalar o'quv mavzusi bo'yicha ma'lumotlarni tarmoqlash, bog'liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilish orqali tushunchalarni chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Ushbu metod puzzlega o'xshash bo'lib, lekin bunda bo'laklarni joyiga qo'yish emas, balki ularni o'zaro bog'lash va keng tarmoqqa aylantirish jarayoni amalga oshiriladi.***

*4-ilova*

"Tadqiqot guruhi" metodi asosida talabalar 4 guruhga bo'linadi. Har bir guruh ma'lum mutafakkirning o'qituvchilik faoliyat haqida fikrlarini tushuntirib o'tadi.

| | |
|---|---|
| ***Guruhlarga topshiriqlar*** | Bo'lajak o'qituvchining sog'lom turmush tarzi |
| | O'qituvchining sog'lom turmush tarzini namuna qilib ko'rsatish |
| | Meditatsiya va psixologik dam olish usullarining o'qituvchi uchun foydasi |
| | Bo'lajak o'qituvchilarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish bo'yicha tashabbus va takliflar |

*5-ilova*

**"Taqqoslash jadvali" metodi. Har bir guruh o'ziga biriktirilgan mutafakkirning pedagogik yondashuvlarni jadval shaklida taqqoslaydi.**

| | | |
|---|---|---|
| **Sog'lom turmush tarzi** | Asosiy yondashuv | |
| | Afzalliklari | |
| | Takliflar | |
| | Milliy tajriba bilan taqqoslash | |

| | | |
|---|---|---|
| **Nosog'lom turmush tarzi** | Asosiy yondashuv | |
| | Oldini olish choralari | |
| | Kamchiliklari | |
| | Milliy tajriba bilan taqqoslash | |

*6-ilova*

Talabalar "Muammo va yechim" metodi orqali ta'lim jarayonidagi muammolarni hal qilish uchun sharq mutafakkirlarining g'oyalari orqali yechim topadi.



***"Muammo va yechim" metodi talabalarni tanqidiy fikrlashga, tahlil qilishga va real muammolar bo'yicha ijodiy yechimlar topishga o'rgatadi. Ushbu metod o'quvchilarning mavzuga doir muammolarni aniqlab, ularga samarali yechim taklif qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.***

**SOG'LOM TURMUSH TARZIGA DOIR MUAMMOLAR**

- Yoshlar o'rtasidagi nosog'lom turmush tarzining keskin ortib borganligi
- Yoshlar orasida zararli odatlarning "moda" sifatida qabul qilinishi
- Yoshlarda gigiyena, ovqatlanish, jismoniy faollik haqida yetarli bilimlarning yo'qligi.

| | |
|---|---|
| **Guruhlarga bo'lish va muammolarni aniqlash** | Talabalar 3-4 kishilik guruhlarga bo'linadi.<br>Har bir guruhga muammo taqdim etiladi yoki ular o'zlari muammoni aniqlashadi.<br>Har bir guruh o'z muammosi bo'yicha asosiy sabablarni aniqlaydi. |

**Yechim yo'llarini ishlab chiqish (15 daqiqa)**

- Guruhlar muammoni hal qilish uchun 2-3 yechim taklif qilishadi.
- Har bir yechimning afzalliklari va kamchiliklari baholanadi.
- Yechimlar real hayotga mosligi va amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatiga ko'ra tanlanadi.



**Talabalarni real muammolarni tahlil qilishga o'rgatadi. Mustaqil va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Jamoaviy ishlash va yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.**

**KROSSVORD**



## Krossvord savollari:

**Eniga**

1. "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" ushbu fikrlar muallifi kim?

4. Har bir shaxsning o'z salomatligini mustahkamlashga bo'lgan ichki ehtiyoji uning bu yo'ldagi amaliy harakatini belgilaydi. Shunga ko'ra barcha omillarni nechtaga ajratish mumkin?

5. STT mafkurasi kimning fikricha, turmush tarzining falsafasini, davlatning sog'lom turmush tarzini shakllanishi bo'yicha yuritayotgan siyosatni, STT ning huquqiy, axloqiy asoslarini, STTning pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologik madaniyati, etikasini o'zida mujjasamlashtirgan bo'lishi lozim?

6. ……va ijtimoiy gigienaga oid adabiyotlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish muammolariga so'nggi paytlarda katta e'tibor berilmoqda. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying?

8. ….bu shunday bir o'lchamki, uning yordamida biz uchun o'lchanishi zarur bo'lgan jarayonlarni shakllantirilgan etalon (standart) bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lamiz, uni baholay olamiz. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying?

**Bo'yiga**

2. **Salomatlik** – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy va …. hayotida faol ishtirok etishi garovidir. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying?

3. Millat salomatligini ta'minlash, xalq ….. bekamu-ko'st saqlash sog'lom turmush tarzi tufayligina yetarlicha ijobiy tarzda hal etiladi. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying?

7. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda qaysi omilining o'rni xaqida gap yuritmoqchi bo'lsak, avvalo motivatsiya atamasi o'z mazmuniga ko'ra shaxsni ma'lum bir faoliyatini bajarishga kirishishi uchun harakatga keltirish, uning muhimligini asoslash va anglatishdan iboratdir?

## Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. STT nima?**

A) Standart turmush tarzi
b) Surunkali turmush tarzi
c) Sog'lom turmush tarzi
d) Sifatli turmush tarzi

**2. STTga muvofiq, haftada organizmga kamida necha soat jismoniy yuklama berish mimkin?**

A) 7 soat
b) 6 soat
c) 8 soat
d) 5 soat

**3. ………………. - bu faol mehnat, ijod og'ushida yashash, kuchli jismoniy va ruhiy yuklamalarni, o'ta xavfli va zararli ta'sir ko'rsatuvchi omillarni yengil ko'tara oladigan har tomonlama taraqqiy etgan shaxsning shakllanish jarayonidir. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying?**

A) Standart turmush tarzi
b) Surunkali turmush tarzi
c) Sog'lom turmush tarzi
d) Sifatli turmush tarzi

**4. STTga muvofiq, toza havoda har kuni kamida necha soat bo'lish lozim?**

A) 1-2 soat
b) 3-4 soat
c) 5-6 soat
d) 2-3 soat

**5. STT mafkurasi qaysi olimning fikricha, turmush tarzining falsafasini, davlatning sog'lom turmush tarzini shakllanishi bo'yicha yuritayotgan siyosatni, STT ning huquqiy, ahloqiy asoslarini, STTning pedagogikasi, psixologiyasi, sotsiologik madaniyati, etikasini o'zida mujjasamlashtirgan bo'lishi lozim.**

A) Klark
b) R.U.Arziqulov
c) Ojegov
d) Muslimov

**6. ………………. - odamlar o'rtasida sog'lom munosabatlarni hamda namunaviy hulqni shakllantirish jarayonini tartibga solib boradi va tezlashtiradi. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi so'zni toping.**

A) Standart turmush tarzi
b) SST mafkurasi
c) Sog'lom turmush tarzi
d) STT namunaviy modeli

**7. STTga muvofiq, kun tartibiga qat'iy amal qilish, bir kecha-kunduzda kamida necha soat uxlash lozim?**

A) 7 soat
b) 8 soat
c) 8 soat
d) 6 soat

**8. ………………. - inson salomatligining qonunyatlari va bilimlari majmui emas, balki, inson salomatligini mustahkamlashga bo'lgan qarashlar tizimidan iboratdir. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi so'zni toping.**

A) Standart turmush tarzi
b) STT mafkurasi
c) Sog'lom turmush tarzi
d) STT namunaviy modeli

**9. ………………. – inson kamolotining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, shaxsning hech kim dahl qila olmaydigan huquqi, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi garovidir. Nuqtalar o'rniga kelgan so'zni aniqlang.**

A) kompetensiya

b) fuqarolik
c) salomatlik
d) pedagogik faoliyat

**10. ……….. - bu shunday bir o'lchamki, uning yordmida biz uchun o'lchanishi zarur bo'lgan jarayonlarni shakllantirilgan etalon (standart) bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lamiz, uni baholay olamiz. Nuqtalar o'rniga kelgan so'zni aniqlang.**

A) standart
b) prinsip
c) mezon
d) kompetensiya

**11. Har bir shaxsning o'z salomatligini mustahkamlashga bo'lgan ichki ehtiyoji uning bu yo'ldagi amaliy harakatini belgilaydi. Shunga ko'ra, barcha omillarni necha guruhga ajratish mumkin?**

A) 4 guruh
b) 3 guruh
c) 2 guruh
d) 5 guruh

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti, 2024 yil 218 bet



## 4-AMALIY MASHG'ULOT
## O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENSIYANING MAZMUNI VA TUZILISHI



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentsiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va zamonaviy ta'limda tutgan o'rni haqida to'liq tasavvur hosil qilish.
- Talabalarga o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirish yo'llarini o'rgatish va ularni o'z kasbiy faoliyatlariga tayyorlashga yo'naltirish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Kasbiy kompetensiyaning mazmun-mohiyatini tushunadilar;
- O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi quyidagi asosiy tarkibiy qismlarini bilib oladilar:
- O'zlarining hozirgi kompetensiyaviy darajasini baholash va rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlashga intiladilar;
- Yaxshi o'qituvchining kasbiy portretini shakllantirish bo'yicha fikr yuritish ko'nikmasini hosil qiladilar.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.

10.Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11.Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.

*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**O'qituvchi kasbiy kompetentsiyaning mazmuni va tuzilishi mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi nima va uning tarkibiy qismlari nimadan iborat?
2. "Kompetentlik", "pedagogik kompetentlik" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalari o'rtasidagi farqni tushuntiring.
3. Kasbiy kompetentsiyaning o'qituvchining shaxsiy xususiyatlariga qanday ta'siri bor?
4. O'qituvchining bilim, ko'nikma va qobiliyatlari o'rtasidagi farqni tushuntiring.
5. O'qituvchining kommunikativ kompetensiyasining ahamiyati nimada?
6. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasining mustahkamlashda doimiy o'z-o'zini baholashning ahamiyati qanday?
7. O'qituvchining kasbiy kompetentligi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni sanab bering.
8. O'qituvchining kasbiy kompetentsiyasi ta'lim jarayonini qanday samarali tashkil etishga yordam beradi?
9. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirish uchun qanday amaliy metodlardan foydalanish mumkin?

*3-ilova*

**Talabalarga "Fikrlar daraxti" metodi orqali pedagoglik kasbining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o'tadi.**



***bu interfaol ta'lim metodi bo'lib, talabalar mavzu bo'yicha o'z fikrlarini tarmoqlangan tizimda shakllantirish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Metod vizual tarzda fikrlarni tuzish, bog'lash va mustahkamlashga yordam beradi.***

*4-ilova*



O'qituvchining kasbiy kompetentsiyaning mazmuni va tuzilishini "Rezyume" strategiyasi orqali tahlil qiling!

Strategiya talabalar tomonidan murakkab, ko'p tarmoqli va muammoli mavzularning samarali o'zlashtirilishi uchun xizmat qiladi. Unga ko'ra o'rganilayotgan mavzuning band yoki bo'limlari bo'yicha axborot berilib, har biri alohida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida o'quv materialining mohiyatini darituvchi asosiy tushuncha, muhim qoidalarning mazmuni, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishdagi ahamiyati, murakkablik darajasi va amaliy qiymati kabi holatlarga e'tibor qaratiladi.

Bu strategiya o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, izlanish, mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini topish, zarur xulosalar chiqarish, oqilona qarorlar qabul qilish, jamoaga samarali ta'sir etish, mavzu bo'yicha egallangan bilimlarni bevosita amalda qo'llay olishga o'rgatadi. Mashg'ulotlarda strategiyadan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni strategiya mohiyati va qo'llash shartlari bilan tanishtiradi

↓

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larni ularning soniga qarab guruhlarga ajratadi

↓

Har bir guruhga tavsiya etilgan muammoning yechimini topishga oid topshiriq beradi

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (8-10 daqiqa) belgilanadi

↓

Har bir guruh topshiriqni bajarishda o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan sxema asosida ish ko'radi

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhning bir nafar a'zosi topshiriqning yechimi bo'yicha ishlanmalarni namoyish qiladi (taqdimotda yechimning "Xulosa" qismi bayon etilmaydi)

↓

O'qituvchi boshqa guruhlardan o'z yechimini taqdim etgan guruhning xulosasi yuzasidan fikr bildirishni so'raydi

O'qituvchi o'quvchi (talaba)larga strategiyadan foydalanishda quyidagi sxema asosida ish ko'rishni tavsiya etadi:

**Asosiy muammo**

| № | Xususiy muammolar | Yechimlari | Natija |
|---|---|---|---|
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |

**Xulosa:**

*5-ilova*

**Pedagoglik kasbining jamiyatdagi ahamiyati va mas'uliyatini "Savol-javob" metodi orqali tahlil qilish.**

Metod mavzuning talabalar tomonidan o'zlashtirilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo'llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga doir bo'lishiga bog'liq.

Ta'lim jarayonida metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiya muammolari yoritilgan mavzu yuzasidan savollar tayyorlaydi

O'qituvchi savollarni talabalarning e'tiborlariga havola etadi

Talabalar berilgan savollarga javob qaytarish orqali mavzuni o'zlashtirganlik darajasini namoyish etadi

O'qituvchi talabalarning savol-javobdagi ishtiroklarini tahlil qilib, baholaydi va mashg'ulotga yakun yasaydi

***Izoh:*** *Ushbu metod orqali talabalar savol-javobni o'zaro bir-biriga berib bilimlarini yanada mustahkam oladilar.*

*6-ilova*

O'qituvchining kasbiy kompetentsiyaning mazmuni va tuzilishini "SWOT-tahlil" strategiyasi orqali tahlil qiling!

Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi. U yordamida muammoning quyidagi to'rt jihati tahlil qilinadi:

- **S** → Kuchli (ustun) jihatlari (hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish)
- **W** → Kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta'sirini o'rganish)
- **O** → Imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini izlash)
- **T** → Tahdidni o'rganish (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining ta'siri aniqlash)

O'qituvchi talabalarni strategiyaning mohiyati bilan tanishtiradi

O'qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratadi

Guruhlarga bir xil yoki bir necha xil muammoni hal etish topshirig'i beriladi

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (6-10 daqiqa) belgilanadi

Guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadi

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhdan 1 nafar vakil guruh ishi bilan jamoani tanishtiradi

Guruhlarning ishlari o'qituvchi va jamoa tomonidan muhokama qilinadi

O'qituvchi jamoaning fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni эълон қилади

O'qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg'ulotni yakunlaydi

***Izoh:*** *strategiyani qo'llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Bunday hollarda o'qituvchi strategiyaning asosiy mohiyati yoki biror bosqichini talabalarning intelektual darajasiga moslab, unga tushunarli so'zlar bilan ifodalashi (o'zgartirishi) mumkin. O'qituvchi tomonidan talabalarga strategiyaning mohiyati, afzalliklari haqida yetarlicha ma'lumot berilishi ular tomonidan hal etiladigan muammo mohiyatining to'la tushunilishini ta'minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.*

**KROSVORD**




**Krossvord savollari:**

**Eniga** **Bo'yiga**

1. Qaysi so'z bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, rahbarlik faoliyatiga singdirib borish degan manolarni anglatadi?
5. "Kompetensiya" atamasining umumiy ma'nosi shakllanishiga hissa qo'shgan olim kim?
7. Psixologik nuqtayi-nazardan kompetentlikning tarifi nechta?
2. Inglizcha "*competence*" tushunchasi lug'aviy jihatdan qanday ma'nosini ifodalaydi?
3. "Kompetensiya – biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi" deb kim ta'rif bergan?
4. Kompetensiya so'zi qaysi so'zdan olingan?
6. 1996 yil qaysi shaharda Yevropa kengashi dasturi bo'yicha simpozium bo'lib o'tgan?
8. "Kompetensiya – biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi" deb aytgan olim kim?

## Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Kompetensiya so'zining ma'nosini aniqlang.**
A) lotincha so'z bo'lib "compete" – kirishayapman, munosibman, loyiqman yoki bir sohadagi bilimlar, tajribalar ma'nolarini anglatadi.
B) inglizcha so'z bo'lib "compete" – kirishayapman, munosibman, loyiqman yoki bir sohadagi bilimlar, tajribalar ma'nolarini anglatadi.
C) fransuzcha so'z bo'lib "compete" – kirishayapman, munosibman, loyiqman yoki bir sohadagi bilimlar, tajribalar ma'nolarini anglatadi.
D) ispancha so'z bo'lib "compete" – kirishayapman, munosibman, loyiqman yoki bir sohadagi bilimlar, tajribalar ma'nolarini anglatadi.

**2. "Kasb doirasida individuallikni mustaqil qo'llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o'sish, mustaqil tashkil qilish va mustqail reabilitatsiya qilishga tayyorlash". Ushbu ta'rif kompetensiyaning qaysi turiga mansub?**
A) Maxsus kompetensiya
B) Ijtimoiy kompetensiya
C) Shaxsiy kompetensiya
D) Individual kompetensiya

**3. "Pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish talabalar va ta'lim jarayoning boshqa ishtirokchilari bilan ijodiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish". Ushbu ta'rif kasbiy kompetentlik sifatlarining qaysi biriga mansub?**
A) Ekstremal kompetentlik
B) Kommunikativ kompetentlik
C) Ijtimoiy kompetentlik
D) Psixologik kompetentlik

**4. "Kompetensiya biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi" deb kim ta'rif bergan?**
A) B.D.Elkonin
B) S.I.Ojegov
C) Muslimov
D) Urazov

**5. "Ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi". Ushbu ta'rif qaysi kompetensiyaga tegishli?**
A) Kommunikativ kompetensiya
B) Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
C) O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
D) Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

**6. Kompetensiyalarning nechta turi mavjud?**
A) 3 turi
B) 5 turi
C) 2 turi
D) 6 turi

**7. "Aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi". Ushbu ta'rif qaysi kompetensiyaga tegishli?**
A) Milliy va umummadaniy kompetensiya
B) Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
C) O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
D) Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi

**8. Kompetensiyalarning ko'rinishi necha xil bo'ladi?**
A) 3 xil
B) 5 xil
C) 2 xil
D) 6 xil

**9. Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi". Ushbu ta'rif qaysi kompetensiyaga tegishli?**
A) Milliy va umummadaniy kompetensiya
B) Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
C) O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
D) Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

**10. "Shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallash". Ushbu ta'rif kompetensiyaning qaysi turiga mansub?**
A) Maxsus kompetensiya
B) Ijtimoiy kompetensiya
C) Shaxsiy kompetensiya

D) Individual kompetensiya

**11. "Ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish, ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subektlar bilan muloqotga krisha olish". Ushbu ta'rif kasbiy kompetentlik sifatlarining qaysi biriga mansub?**

A) Ekstremal kompetentlik

B) Kommunikativ kompetentlik

C) Ijtimoiy kompetentlik

D) Psixologik kompetentlik

**12. "Ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi". Ushbu ta'rif qaysi kompetensiyaga tegishli?**

A) Kommunikativ kompetensiya

B) Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi

C) O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi

D) Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

**13. "Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi". Ushbu ta'rif qaysi kompetensiyaga tegishli?**

A) Kommunikativ kompetensiya

B) Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi

C) O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi

D) Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

**14. "Birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o'z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik". Ushbu ta'rif kompetensiyaning qaysi turiga mansub?**

A) Maxsus kompetensiya

B) Ijtimoiy kompetensiya

C) Shaxsiy kompetensiya

D) Individual kompetensiya

**15. "Ta'lim jarayoning barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish". Ushbu ta'rif kasbiy kompetentlik sifatlarining qaysi biriga mansub?**

A) Ekstremal kompetentlik

B) Kommunikativ kompetentlik

C) Ijtimoiy kompetentlik

D) Psixologik kompetentlik

**16. "Yetarli yuqori darajada o'z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalash". Ushbu ta'rif kompetensiyaning qaysi turiga mansub?**

A) Maxsus kompetensiya

B) Ijtimoiy kompetensiya

C) Shaxsiy kompetensiya

D) Individual kompetensiya

**17. "Favqulodda vaziyatlarda (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik". Ushbu ta'rif kasbiy kompetentlik sifatlarining qaysi biriga mansub?**

A) Ekstremal kompetentlik

B) Kommunikativ kompetentlik

C) Ijtimoiy kompetentlik

D) Psixologik kompetentlik

**18. "Doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi". Ushbu ta'rif qaysi kompetensiyaga tegishli?**

A) Kommunikativ kompetensiya

B) Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi

C) O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi

D) Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

**19. N.A.Muslimov va M.B.O'rozovalar kasbiy ta'lim nuqati nazaridan kompetensiyalarni nechta turlarga ajratishgan?**

A) 5 ta tur

B) 4 ta tur

C) 6 ta tur

D) 7 ta tur

**20. "Moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo'lgan shaxsning madaniyatlar va sohalararo bilim, qobiliyat, ko'nikmalaridir". Ushbu ta'rif kompetensiyaning qaysi turiga mansub?**

A) Maxsus kompetensiya

B) Ijtimoiy kompetensiya

C) Shaxsiy kompetensiya

D) Asosiy kompetensiyalar

**21. "Kompetensiya – biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi" deb kim ta'rif bergan?**

A) B.D.Elkonin

B) S.I.Ojegov

C) N.A.Muslimov

D) M.B.Urazov

**22. "Biror sohani chuqur bilish, ko'p narsalardan xabardorlik, o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini tasvirlash, bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik sohasiga singdirib borish" nima deb ataladi?**

A) Kreativlik

B) Refleksiya

C) kompetentlik
D) kompetensiya

**23. "Mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi". Ushbu ta'rif qaysi kompetensiyaga tegishli?**
A) Kommunikativ kompetensiya
B) Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
C) O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
D) Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**



Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti, 2024 yil 218 bet



## 5-AMALIY MASHG'ULOT
## TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA KOGNITIVLIKNI SHAKLLANTIRISH



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**
- O'quvchilarda kognitiv (bilish) qobiliyatlarini shakllantirishni o'rgatish;
- O'quvchilarda kognitiv (bilish) qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali usullari va strategiyalarini amaliy tarzda qo'llash;
- Dars mashg'ulotlari davomida qanday qo'llash lozimligini tahlil qilish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**
- **Kognitivlik tushunchasining** mohiyatini tushunadi;
- Muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javoblar, interfaol o'yinlar, mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlarni qo'llashni o'rganadi;
- Dars jarayoniga kognitiv strategiyalarni integratsiya qilishni amalda qo'llaydi;
- O'z faoliyatini baholash, muammolarni tahlil qilish va takomillashtirish bo'yicha mulohaza yuritadi.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., -416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.

10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.

*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kognitivlikni shakllantirish mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Kognitivlik nima va kognitiv rivojlanishning ta'lim jarayonidagi o'rni nima?
2. Kognitivlikni shakllantirishda o'qituvchining roli qanday?
3. Ta'limda kognitiv yondashuvning afzalliklari nimalardan iborat?
4. Kognitiv yondashuvda o'quvchilarni qanday tarzda rag'batlantirish mumkin?
5. Kognitiv ishtirok deb nimaga aytiladi?
6. Kognitiv faollik nima va uni amalga oshirishda qanday amaliy mashqlardan foydalaniladi?
7. Kognitiv kompetensiyalar nima degani?
8. Kompetentsiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning kognitiv kompetentsiyalarini shakllantirish qanday amalga oshiriladi?
9. Mediata'lim resurslaridan foydalanishda o'qituvchi o'quvchilar bilan ishlashda qaysi xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim?
10. Klarkning fikriga ko'ra, kognitiv jalb qilingan ta'limning to'rtta asosiy shakli mavjud:
11. Kognitiv faollikning qanday afzalliklari bor?
12. Kognitiv faollikka qanday misollar keltirish mumkin?

*3-ilova*

**Talabalarga "Idrok xaritasi" metodi orqali mavzuga oid ma'lumotlarni tarmoqlash, bog'liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o'tadi.**




***Idrok xaritasi metodi (inglizcha: Concept Mapping Method) — bu o'quvchilarning bilimlarini tizimli tashkil etish, yangi tushunchalarni chuqur anglash va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga yordam beruvchi vizual metodlardan biridir. Bu metod asosan grafik shakldа tushunchalar va ularning o'zaro aloqalarini aks ettirish orqali amalga oshiriladi.***

*4-ilova*



**Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kognitivlikni shakllantirish mavzusini FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.**

**Jadvalni to'ldiring**

**1-guruh**

| "FSMU" metodi | |
|---|---|
| **Savollar** | **Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kognitivlikni shakllantirish qanday ahamiyatga ega va ularning ta'lim jarayonidagi roli qanday deb o'ylaysiz?** |
| **(F) Fikringizni bayon eting** | |
| **(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating** | |
| **(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring** | |
| **(U) Fikringizni umumlashtiring** | |

**2-guruh**

| "FSMU" metodi | |
|---|---|
| **Savollar** | **Kognitiv faollikning qanday afzalliklari nimalardan iborat, bunga real vaziyatlardan misollar keltiring?** |
| **(F) Fikringizni bayon eting** | |
| **(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating** | |
| **(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring** | |
| **(U) Fikringizni umumlashtiring** | |

*5-ilova*

**Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kognitivlikni shakllantirishning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni mavzusini "Modellashtirish" metodi orqali tahlil qiling.**

"Modellashtirish" ("modulus" – o'lchov, meyor) metodi talabalarda o'zlashtirilgan mavzu, masala yoki hal qilingan muammo yuzasidan mantiqiy fikrlash, mavzu, masala yoki hal qilinayotgan muammoning umumiy mohiyatini model (shartli belgi)lar yordamida ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llashda tanlangan obekt mohiyati, muhim xususiyatlari, ustuvor jihatlarini to'la ochib berishga alohida e'tibor qaratiladi. Mashg'ulotda metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Talabalar mavzu (masala, muammo) mohiyatini puxta anglab oladi

↓

Talabalar mavzu (masala, muammo) mohiyatini to'laqonli ifoda etadigan asosiy jihatlar, tayanch tushunchalarni ajratadi

↓

Tayanch tushunchalar yordamida umumiy model yaratiladi

↓

Har bir talaba model yordamida o'rganilgan mavzu (masala, muammo)ning mohiyati to'g'risida jamoaga ma'lumot beradi

↓

Har bir talaba tomonidan taklif etilgan modelning maqsadga muvofiq yaratilganligi, mavzu (masala, muammo) mohiyatining ochib berilishi jamoa tomonidan muhokama qilinadi

*6-ilova*

**Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kognitivlikni shakllantirish o'qituvchining roli mavzusini "Sindikat" strategiyasi orqali tahlil qiling.**

**"Sindikat" (yunoncha "birgalikda harakat qilish", "maslakdoshlik") strategiyasi talabalarda mavzu (masala, muammo)ni ijodiy o'rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlash asosida fikrni qisqa va aniq bayon qilish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.**

Har bir guruh yagona topshiriqni uch xil variantda hal etishi lozim. M: o'rganilayotgan mavzu mohiyatini 1-guruh sxema, 2-guruh klaster, 3-guruh esa jadval tarzida ochib berishi kerak. Guruhlar topshiriqni bajarib bo'lishgach, ular tomonidan taqdim etilgan yechim (ishlanma)lar jamoa tomonidan muhokama qilinadi. Strategiyani qo'llash tartibi quyidagicha:

O'qituvchi talabalarni strategiyaning mohiyati bilan tanishtiradi

↓

Talabalar uchta kichik guruhlarga bo'linadi

↓

Kichik guruhlarga topshiriqlar beriladi

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10-15 daqiqa) belgilanadi

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, kichik guruhlar o'z ishlarini namoyish etadi

↓

Kichik guruhlarning ishlari jamoa tomonidan o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va eng yaxshi ish aniqlanadi

↓

O'qituvchi jamoa fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni e'lon qiladi

↓



O'qituvchi guruhlar ishini baholab, mashg'ulotni yakunlaydi

## KROSSVORD




### Krossvord savollari:

**Eniga**

**1.** Kognitiv so'zi qaysi tildan olingan?

**5.** Qaysi fandagi taraqqiyot "aql topishmoqlarini hal qilish" imkonini beradi, ya'ni inson miyasida yuqori asabiy faoliyat uchun javob beradigan jarayonlarni tasvirlash va tushuntirishga imkon beradi.

**8.** Elektron o'quv manbalar tarkibiy qismlari nechtadan iborat?

**Bo'yiga**

**2.** Qaysi so'z (yunoncha: — ish, mehnat va — qonun) — kishi (kishilar guruhi)ni ishlab chiqarish faoliyati sharoitlari bilan bog'liq holda kompleks o'rganadigan fan degan manolarni o'rgatadi?

**3.** Kognitiv kompetentsiyalar ......, xotira, fikrlash va tasavvurning kognitiv jarayonlarini, shuningdek, axborotni qayta ishlash. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying?

**4.** Psixologiyadan tashqari, bir vaqtning o'zida bir nechta ilmiy fanlar paydo bo'ldi: sun'iy intellekt faniga qaysi olim o'z hissasini qo'shadi?

**6.** Kognitivistika, kognitiv fan qaysi tildan olingan?

**7.** Kognitiv ...... o'quv jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki u o'quvchilarni darsda doimiy ravishda qatnashishga va mavzularni chuqurroq tushunishga undaydi. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying?

## Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Kognitiv fanda yangi yo'nalish sifatida rivojlanishi qaysi vaqtga to'g'ri keladi?**

A) XX-asrning boshlarida
b) XIX-asrning boshlarida
c) XXI-asrning boshlarida
d) XVIII-asrning boshlarida

**2. Kognitiv so'ziga berilgan to'g'ri ta'rifni anqilang?**

A) inglizcha (lotin) "cognize" so'zidan olingan bo'lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki "cognition"– bilish, tushinish kabi ma'nolarni beradi.
b) ispancha (lotin) "cognize" so'zidan olingan bo'lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki "cognition"– bilish, tushinish kabi ma'nolarni beradi.
c) italyancha (lotin) "cognize" so'zidan olingan bo'lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki "cognition"– bilish, tushinish kabi ma'nolarni beradi.
d) fransuzcha (lotin) "cognize" so'zidan olingan bo'lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki "cognition"– bilish, tushinish kabi ma'nolarni beradi.

**3. Qaysi tushuncha o'quv jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki u o'quvchilarni darsda doimiy ravishda qatnashishga va mavzularni chuqurroq tushunishga undaydi?**

A) kognitiv faollik
b) kognitiv ishtirok
c) Kognitiv jalb qilish
d) to'g'ri javob yo'q

**4. Qaysi tushuncha orqali o'quvchilarning g'ayratli bo'lib, bilim qismini tushunishga va uni amalda qo'llashga intilishga tayyor bo'lgan psixologik holat sifatida aniqlanadi. Shuningdek, o'quvchilarning talabdan tashqariga chiqishga va qiyinchiliklarni yengishga harakat qilish usullarini ham qamrab oladi?**

A) kognitiv faollik
b) kognitiv ishtirok
c) Kognitiv jalb qilish
d) to'g'ri javob yo'q

**5. Qaysi fan tarmoqida taraqqiyot "aql topishmoqlarini hal qilish" imkonini beradi, ya'ni inson miyasida yuqori asabiy faoliyat uchun javob beradigan jarayonlarni tasvirlash va tushuntirishga imkon beradi?**

A) neyropsixologiya
b) neyropedagogika
c) kognitiv fan
d) psixolingvistika

**6. Qaysi tushuncha maktabda yoki ish joyida bo'ladimi, barcha o'quvchilar, o'qituvchilar va murabbiylar nima qilishga moyildirlar. Bu o'quvchilar va tashkilot uchun juda ko'p foyda keltiradi?**

A) kognitiv faollik
b) kognitiv ishtirok
c) Kognitiv jalb qilish
d) to'g'ri javob yo'q

**7. Ta'lim oluvchining pedagogik muloqoti tuzilishi 4 ta yo'nalishlarda amalga oshiriladi deb qaysi olim aytgan?**

A) Ojegov
b) Slastyonin
c) Kan-Kalik
d) Klark

**8. Kognitiv fanning paydo bo'lishiga hissa qo'shgan ilmiy sohalarni to'g'ri belgilang? 1. Tilshunoslik 2. Nevrologiya 3. Sun'iy intellekt 4. Falsafa 5. Antropologiya 6. Psixologiya 7. Fiziologiya 8. Energetika**

a) 1.2.3.4.5.6.7.8.
b) 1.2.3.4.5.6.7.
c) 1.2.3.4.5.6.
d) 1.2.3.4.5.

**9. Qaysi olimning fikriga ko'ra, kognitiv jalb qilingan ta'limning to'rtta asosiy shakli mavjud?**

A) Ojegov
b) Slastyonin
c) Klark
d) Pavlov

**10. Bu ma'lum bir maqsadga erishish uchun, odatda, muammo yoki vazifalarni hal qilish uchun ma'lumotni qayta ishlash bilan bog'liq kognitiv faoliyat jarayonida namoyon bo'ladigan kompetensiyalar qanday kompetensiyalar deyiladi?**

A) Maxsus kompetensiya
B) Kognitiv kompetensiya
C) Shaxsiy kompetensiya
D) Individual kompetensiya

**11. Yunoncha ish, mehnat va qonun — kishi (kishilar guruhi)ni ishlab chiqarish faoliyati sharoitlari bilan bog'liq holda kompleks o'rganadigan fan; mehnat qurollari, sharoitlari va jarayonlarini takomillashtirish maqsadlarida inson, texnika, ishlab chiqarish muhitining o'zaro ta'siri va aloqalarini tadqiq etadigan yo'nalish qanday nomlanadi?**

A) kognitivistika
b) ergonomika
c) neyrofiziologiya
d) neyropedagogika

**12. Elektron o'quv manbalar necha tarkibiy qismlardan iborat?**

A) 5 ta
b) 4 ta
c) 3 ta
d) 2 ta

**13. Nechinchi asrda kognitiv fanda yangi yo'nalish rivojlandi?**

a) XX asrda boshlarida

b) XXI asr boshlarida
c) XVIII asr boshlarida
d) XIX ASRboshlarida

**14. Inglizchadan "embodied cognitive science" ma'nosini anglatuvchi so'z qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

a) kognitiv
b) kognitivistika
c) lingvistika
d) kognitiv fan

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti, 2024 yil 218 bet



## 6-AMALIY MASHG'ULOT
## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA SHAXSLARARO MUNOSABAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatining mohiyatini tushuntirish;
- Muloqot madaniyati va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirish;
- Ta'lim jarayonida sog'lom kommunikatsiyani yo'lga qo'yish malakasini rivojlantirish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Shaxslararo munosabat madaniyati tushunchasini anglab, pedagogik muloqotning ahamiyatini, o'qituvchi-o'quvchi va o'qituvchi-hamkasb o'rtasidagi sog'lom munosabatlar samarali ta'limning asosi ekanligini anglaydi.
- Amaliy mashg'ulotlar davomida shaxslararo munosabatni baholashda muloqot vaziyatlari, simulyatsiyalar orqali o'zini tutish uslubini sinab ko'radi.
- Shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirishda o'zining kelajakdagi kasbiy faoliyatida kommunikativ strategiyalarni qo'llashni rejalashtiradi.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., -416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv

qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.

*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball:
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Shaxslararo munosabat madaniyati nima va o'qituvchining shaxslararo munosabat madaniyatining ta'lim jarayoniga ta'siri qanday?
2. O'qituvchida shaxslararo munosabat madaniyatini rivojlantirishda qaysi ko'nikmalar muhim hisoblanadi?
3. Shaxslararo munosabatlar madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining o'z-o'zini tahlil qilishning roli qanday?
4. Rus pedagogi V.A.Kan-Kalikning fikricha, ta'lim oluvchining pedagogik muloqoti tuzilishi qaysi yo'nalishlarda amalga oshiriladi?
5. Shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodlaridan biri sotsiometriya qanday metod edi?
6. "Assotsiatsiya" qanday mashq edi?
7. "Do'stimga maktub" qanday mashq edi?
8. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ishonchli munosabat qanday shakllanadi?
9. Hurmatga asoslangan muloqotning asosiy belgilari nimalardan iborat?
10. Tengdoshlar o'rtasida sog'lom munosabatni shakllantirish uchun o'qituvchi qanday choralarni ko'rishi kerak?
11. Agarda sinfda mojaro yuzaga kelsa, o'qituvchi qanday yondashuvni tanlashi kerak?
12. O'zaro tushunmovchiliklarda vositachi rolini o'ynash o'qituvchidan nimalarni talab qiladi?

*3-ilova*

**"3-2-1 Tezkor" metodi talabalarning tezkor va aniq javob berish qobiliyatini rivojlantiramiz.**






***Bu metod o'quvchilarning tezkor fikrlash, aniqlik bilan javob berish va vaqtni samarali boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv qisqa vaqt ichida ma'lumotni tushunish, uni qayta ishlash va xulosa chiqarish imkonini beradi.***

| | |
|---|---|
| **Topshiriq:** Bo'lajak o'qituvchilarda shaxslararo munosabat madaniyatini shakllantirish ta'lim tizimida qanday ahamiyatga ega? | **3-daqiqa – Tushunish va rejalashtirish** **Shaxslararo munosabat madaniyatining 3 ta asosiy muhim vazifasini tanlang. Ularning funksiyasini o'ylab ko'ring va qisqacha izohlashga tayyorlaning.** |
| | **2 daqiqa – Amalga oshiring** Tanlangan 3 ta vazifani yozing. Har birining o'zaro munosabatlar madaniyatining b ir-biriga aloqadorligini izolashga tayyorlaning. |
| | **1 daqiqa – Xulosa chiqarish** Ushbu vazifalar orasidan eng muhim deb hisoblaganingizni tanlang v anima uchun ekanligini izohlang. |

*4-ilova*

**Talabalarga "3x4" strategiyasi metodi orqali yakka holda fikrlab, yechimlarini topish orqali mavzu bo'yicha kompetentligini rivojlantirish topshirig'i.**

Strategiya talabalarni aniq bir muammoni yakka holda fikrlab hal etish, yechimini topish, g'oyalar orasidan muhimini tanlay bilish, bir necha muhim fikrni umumlashtirish, ular asosida muammo yuzasidan aniq tushuncha hosil qilish va o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi. U talabalarni mustaqil fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, fikrlarni jamlab, nazariy va amaliy tushunchalar hosil qilish, jamoaga o'z fikrini o'tkazish, o'z fikrini ma'qullash, muammoni yechish va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'rganilgan barcha mavzular bo'yicha egallangan bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. Strategiya yordamida talabalar topshiriqlarni dastlab individual, so'ngra kichik guruhlar tartibida yozma shaklda bajaradi.




**Izoh:** *1. Guruhlar sonining to'rtta bo'lishi strategiya samaradorligini ta'minlaydi. Bunda mashg'ulot zerikarli bo'lmaydi. Agar guruhlar soni 4 tadan ortiq bo'lsa, guruhlarni ikkita katta guruhlarga ajratish mumkin.*

*2. Tarqatmali materialda ko'rsatilgan mavzu bo'yicha 3 ta tayanch tushuncha (so'z, so'z birikmasi yoki 3 ta gap) yozish talab etiladi.*

*3. Dastlabki topshiriq bajarilgach, guruhlar soat mili yo'nalishi bo'yicha o'z joylarini o'zgartiradi (1-guruh 2-guruhning, 2-guruh 3-guruhning, 3-guruh 4-guruhning, 4-guruh 1-guruhning o'rnini egallaydi). Bu holat har bir guruh o'zining dastlabki o'rniga yetib kelgunga qadar davom etadi.*

*4. Guruhlarning taqdimotidan so'ng har bir o'quvchi (talaba) ham individual ravishda o'zining mualliflik ishini namoyish qilishi mumkin.*

**Mashg'ulotda strategiyani qo'llash tartibi quyidagicha:**

1. Talabalar ularning soniga ko'ra kichik guruhlarga ajratiladi.
2. O'qituvchi talabalarni strategiya mohiyati va uni qo'llash tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir kichik guruhga yuqori qismida yozuvi bo'lgan qog'ozlar tarqatiladi.
4. Kichik guruhlar belgilangan vaqt mobaynida topshiriqni bajaradi.
5. Topshiriq bajarilgach, guruhlar soat mili yo'nalishi bo'yicha o'z joylarini o'zgartiradi.
6. Bir guruhning o'rnini olgan 2-guruh avvalgi guruhning ishini davom etiradi (ya'ni avvalgi guruh ishi bilan tanishib, unga uchtadan yangi fikr yozib qo'yadi).
7. Guruh a'zolari yana bir bor joylarini almashtiradi.
8. Guruhlarning almashinuvi ular dastlabki o'rinlariga qaytib kelgunlaricha davom ettadi.
9. O'z joylariga qaytib kelgan kichik guruhlar tarqatmali materiallar asosida to'plangan barcha fikrlarni o'rganadi va umumlashtirib, yaxlit holatga keltiradi.
10. Har bir guruhdan bir nafar vakil chiqib, guruh ishini taqdim etadi.
11. O'qituvchi guruh (o'quvchilar)ning ishlarini izohlab, ishlanmalarni

*5-ilova*

**Talabalarga "Muammoli vaziyat" metodi orqali ma'lumotlarni tarmoqlash, bog'liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o'tadi.**

Strategiya talabalarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini o'rganish, yechimlarini topishga undash orqali ularda muayyan ko'nikma, malakalarni shakllantirishga



xizmat qiladi. Mashg'ulotlar jarayonida "Muammoli vaziyat" strategiyasini qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlarni shakllantirish

Muammoli vaziyat mazmuni bilan talabalarni tanishtirish

Talabalarni kichik guruh (juftlik)larga ajratish

Guruh (juftlik)lar tomonidan muammoli vaziyat yechimini topish bo'yicha amaliy faoliyatning tashkil etilishi

Guruh (juftlik)lar tomonidan muammoli vaziyat yuzasidan o'z yechimlarining bayon qilinishi

Guruh (juftlik)larning yechim borasidagi fikrlarini umumlashtirish

Guruh (juftlik)lar tomonidan taqdim etilgan yechimlarning maqbullik darajasini o'rganish (ommaviy muhokama qilish, ekspertlar muhokamasidan o'tkazish)

Eng to'g'ri, maqbul yechimni aniqlash

*6-ilova*

**Talabalarga "Rezyume" strategiyasi orqali mavzuga oid murakkab, ko'p tarmoqli va muammoli vaziyatlarni o'zlashtirgan bilimlari yordamidan hal qilishlari aytib o'tadi.**

Strategiya talabalar tomonidan murakkab, ko'p tarmoqli va muammoli mavzularning samarali o'zlashtirilishi uchun xizmat qiladi. Unga ko'ra o'rganilayotgan mavzuning band yoki bo'limlari bo'yicha axborot berilib, har biri alohida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida o'quv materialining mohiyatini yorituvchi asosiy tushuncha, muhim qoidalarning mazmuni, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishdagi ahamiyati, murakkablik darajasi va amaliy qiymati kabi holatlarga e'tibor qaratiladi.

Bu strategiya o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, izlanish, mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini topish, zarur xulosalar chiqarish, oqilona qarorlar qabul qilish, jamoaga samarali ta'sir etish, mavzu bo'yicha egallangan bilimlarni bevosita amalda qo'llay olishga o'rgatadi.

Mashg'ulotlarda strategiyadan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

O'qituvchi talabalarni strategiya mohiyati va qo'llash shartlari bilan tanishtiradi.

O'qituvchi talabalarni ularning soniga qarab guruhlarga ajratadi.

Har bir guruhga tavsiya etilgan muammoning yechimini topishga oid topshiriq beradi.

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (8-10 daqiqa) belgilanadi.

↓

Har bir guruh topshiriqni bajarishda o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan sxema asosida ish ko‘radi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhning bir nafar a’zosi topshiriqning yechimi bo‘yicha ishlanmalarni namoyish qiladi (taqdimotda yechimning "Xulosa" qismi bayon etilmaydi)

O‘qituvchi boshqa guruhlardan o‘z yechimini taqdim etgan guruhning xulosasi vuzasidan fikr bildirishni so‘ravdi.

↓

Guruhlarning fikrlari tinglangach, yechimni taqdim etgan guruh o‘z xulosasini bayon qiladi.

↓

O‘qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikr (xulosa)larga izoh berib, ularni baholaydi.

↓

O‘qituvchi mashg‘ulotni yakunlaydi.

O‘qituvchi talabalarga strategiyadan foydalanishda quyidagi sxema asosida ish ko‘rishni tavsiya etadi:

| Asosiy muammo: | | | |
|---|---|---|---|
| № | Mavjud muammolar | Yechimlari | Natija |
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |
| Xulosa: | | | |

**KROSSVORD**





**Krossvord savollari:**

**Eniga**

1. ........ – yunoncha so‘z bo‘lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o‘zaro fikr almashuv ma’nosini bildiradi hamda ikki yoki undan ortiq kishilarning so‘zlashuvida paydo bo‘ladi. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni toping.
4. "O‘qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo‘lishi lozim". Ushbu ta’rif qaysi olimga tegishli?
5. Muloqot davomida suhbatdoshida qanday taassurot qoldirganligini fikrlash yordamida anglash nima deyiladi?
6. Qaysi metodi turli guruhlarda, jamoalarda shaxslararo munosabatlar xususiyatlarini o‘rganishning psixologiyada keng qo‘llaniladigan eng samarador vositalaridan hisoblanadi?

**Bo‘yiga**

2. Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholab kelgusi faoliyat uchun modellashtirish nima deyiladi?
3. "O‘qituvchining maktab hovlisida gapirgan har bir so‘zi puxta o‘ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma’lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo‘lishi kerak" deb qaysi olim ta’kidlagan edi?
7. V.A.Kan-Kalikning fikricha, ta’lim oluvchining pedagogik muloqoti tuzilishi nechta yo‘nalishlarda amalga oshiriladi?

## Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. "Ta'lim oluvchining maktab hovlisida gapirgan har bir so'zi puxta o'ylangan, aql va mulohazalarga boy, ma'lum bir tarbiyaviy maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak" deb ta'kidlagan pedagog kim edi?**

A) Makarenko
b) Disterverg
c) Suxomlinskiy
d) Klark

**2. ……… – insoniyat hayot faoliyatining zarur sharti bo'lib, shaxsning yetuk inson sifatida shakllanishida, uning pedagogik va psixik funksiyalari, axloqiy xususiyatlar rivojlanishidagi ahamiyati beqiyosdir. Nuqatlar o'rniga mos so'zni belgilang.**

A) guruhlararo munosabat
b) shaxslararo munosabat
c) ommaviy munosabat
d) individual munosabat

**3. Shaxslararo munosabatlarni o'rganish metodlaridan biri nima deb ataladi?**

A) test
b) anketa
c) intervyu
d) sotsiometriya

**4. O'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun eng qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabat nima deyiladi?**

A) guruhlararo munosabat madaniyati
b) shaxslararo munosabat madaniyati
c) ommaviy munosabat madaniyati
d) individual munosabat madaniyati

**5. Sotsiometriya tushunchasi qaysi olim tomonidan taklif etilgan?**

A) Simon
b) J.Moreno
c) A.Bine
d) Torndayk

**5. Shaxslararo muomala jarayoni amalga oshirilganda, muloqotga kirishishda hamsuhbatlarini identifikatsiya qilish (o'z sifatlarini unga berish, ya'ni birovning harakterini o'ziga o'xshatish) nima deb atalgan?**

A) perseptiv
b) refleksiya
C) sherigining maxsus jarayondagi reaksiyasi
d) to'g'ri javob yo'q

**6. O'smirlarning shaxslararo munosabatlari bo'yicha psixodiagnostik xususiyatga egaligi qaysi metodda o'z aksini topgan?**

A) Sotsiometriya metodi
b) "Do'stimga maktub" mashqi



c) Intervyu
d) Assotsiatsiya mashqi

**7. Shaxslararo muomala jarayoni amalga oshirilganda, muloqot davomida hamsuhbatida qanday taassurot qoldirganligini fikrlash yordamida anglash nima deb ataladi?**

A) perseptiv
b) refleksiya
C) sherigining maxsus jarayondagi reaksiyasi
d) to'g'ri javob yo'q

**8. Shaxslararo muomala jarayoni amalga oshirilganda, o'z xatti-harakatini, nutqini va boshqalarni tuzatib borish nima deb ataladi?**

A) perseptiv
b) refleksiya
C) sherigining maxsus jarayondagi reaksiyasi
d) to'g'ri javob yo'q

**9. "Ta'lim oluvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat shaklida bo'lishi lozim". Ushbu ta'rifni qaysi pedagog aytgan?**

A) Makarenko
b) Disterverg
c) Suxomlinskiy
d) Klark

### Mustaqil o'qish uchun topshiriq

Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.- 240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti, 2024 yil 218 bet

## 7-AMALIY MASHG'ULOT
## TALABALARNI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASHKIL ETILADIGAN O'QUV VA PEDAGOGIK AMALIYOTIGA TAYYORLASH



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Bo'lajak pedagoglarda xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS va h.k.) mazmun mohiyatini tushuntirish;
- Xalqaro baholash dasturlarining talablari asosida o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish;
- Xalqaro baholash dasturlarining talablari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Xalqaro baholash dasturlarining mazmun-mohiyati, maqsadi haqida tasavvur hosil qiladi.
- O'quvchi kompetensiyasi tushunchasini anglaydi, savodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatda harakat qilish, axborotni tahlil qilish kabi kompetensiyalar mohiyatini tushunadi.
- Xalqaro standartlarga mos topshiriqlar bilan ishlaydi, PISA, TIMSS uslubidagi topshiriqlarni tahlil qiladi, ularga javob berishni va o'quvchilarda bu ko'nikmalarni shakllantirish usullarini o'rganadi.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova. M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov. S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo. 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv





qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.


*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Xalqaro baholash dasturi talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyalarini shakllantirish mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Xalqaro baholash dasturlarining asosiy maqsadi nima?
2. Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati nimada?
3. Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?
4. Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud?
5. PISA dasturining to'liq nomini ayting.
6. PISA dasturida necha yoshdagi o'quvchilar baholanadi?
7. PISA testlarida qaysi asosiy yo'nalishlar baholanadi?
8. PIRLS dasturining to'liq nomini ayting.
9. ICILS dasturining to'liq nomini ayting.
10. TIMSS dasturining to'liq nomini ayting.
11. TIMSS dasturining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
12. Xalqaro baholashga tayyorgarlikda o'quvchilarning qanday ko'nikmalari ustida ishlash lozim?

*3-ilova*

***"Puzzle" metodi orqali Xalqaro baholash dasturiga oid atama, jumla, ta'rif, asosiy ma'lumotlar qog'ozga yozilib, bir nechta bo'laklarga bo'lib, aralashtirilib yuboriladi va bu qog'ozlar konvertga solinib guruhlarga beriladi. O'qituvchi tomonidan vaqt belgilangandan so'ng talabalar bu bo'laklar ichidan faqat bitta ma'lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar.***



*4-ilova*

**"Pedagogik mozaika" interfaol metodi orqali ta'lim jarayonini tashkil etishda me'yoriy hujjatlari tahlil qiling!**



*"Pedagogik mozaika" – bu interfaol ta'lim metodlaridan biri bo'lib, talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali mavzuni chuqur o'rganadi. Har bir guruh alohida pedagogik g'oya yoki tamoyilni tahlil qiladi, so'ngra boshqa guruh a'zolari bilan o'z bilimlarini almashib, umumiy xulosani shakllantiradi. Bu metod mavzuni qisqa vaqt ichida samarali o'zlashtirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.*

**Guruhlar uchun mavzular:**

| | |
|---|---|
| **1-guruh uchun** | O'quv dasturining biror bir mavzusini tanlab, uning tuzilishini tahlil qiling. |
| **2-guruh uchun** | O'quv rejasining va metodik qo'llanmaning tarkibini tahlil qiling. |
| **3-guruh uchun** | O'quv meyoriy hujjatlarida uchraydigan muammolarni aniqlang. |
| **4-guruh uchun** | O'quv dasturi yoki metodik qo'llanmani tahlil qilib, ularni zamon talablariga moslashtirish uchun qanday o'zgarishlar kiritish mumkinligini ko'rib chiqing. |

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:**

1. Sheringingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.



*5-ilova*

Talabalar **"Muammo va yechim" metodi** orqali me'yoriy hujjatlarni rivojlantirish **muammolarini aniqlaydi**, uning sabablarini tahlil qiladi va mumkin bo'lgan **yechim yo'llarini** ishlab chiqadi .



*"Muammo va yechim" metodi talabalarni tanqidiy fikrlashga, tahlil qilishga va real muammolar bo'yicha ijodiy yechimlar topishga o'rgatadi. Ushbu metod o'quvchilarning mavzuga doir muammolarni aniqlab, ularga samarali yechim taklif qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.*






| | |
|---|---|
| **Guruhlarga bo'lish va muammolarni aniqlash** | Talabalar 3-4 kishilik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga muammo taqdim etiladi yoki ular o'zlari muammoni aniqlashadi. Har bir guruh o'z muammosi bo'yicha asosiy sabablarni aniqlaydi. |

**Yechim yo'llarini ishlab chiqish (15 daqiqa)**

- Guruhlar muammoni hal qilish uchun 2-3 yechim taklif qilishadi.
- Har bir yechimning **afzalliklari va kamchiliklari** baholanadi.
- Yechimlar real hayotga mosligi va amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatiga ko'ra tanlanadi.



**Talabalarni real muammolarni tahlil qilishga o'rgatadi. Mustaqil va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Jamoaviy ishlash va yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.**

*6-ilova*

Xalqaro baholash dasturlarini "SWOT-tahlil" strategiyasi orqali tahlil qiling !

Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to'rt jihati tahlil qilinadi:

| | |
|---|---|
| **S** | Kuchli (ustun) jihatlari (hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish) |
| **W** | Kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo‘lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta’sirini o‘rganish) |
| **O** | Imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo‘llarini izlash) |
| **T** | Tahdidni o‘rganish (maqsadga erishish yo‘lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining ta’siri aniqlash) |

## Mashg‘ulotlarda strategiyani qo‘llash tartibi quyidagicha:

O‘qituvchi talabalarni strategiyaning mohiyati bilan tanishtiradi

↓

O‘qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratadi

↓

Guruhlarga bir xil yoki bir necha xil muammoni hal etish topshirig‘i beriladi

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (6-10 daqiqa) belgilanadi

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhdan 1 nafar vakil guruh ishi bilan jamoani tanishtiradi

↓

Guruhlarning ishlari o‘qituvchi va jamoa tomonidan muhokama qilinadi

↓

O‘qituvchi jamoaning fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni эълон қилади

↓

O‘qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg‘ulotni yakunlaydi

↓

Guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadi

***Izoh:*** *strategiyani qo‘llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Bunday hollarda o‘qituvchi strategiyaning asosiy mohiyati yoki biror bosqichini talabalarning intelektual darajasiga moslab, unga tushunarli so‘zlar bilan ifodalashi (o‘zgartirishi) mumkin. O‘qituvchi tomonidan talabalarga strategiyaning mohiyati, afzalliklari haqida yetarlicha ma’lumot berilishi ular tomonidan hal etiladigan muammo mohiyatining to‘la tushunilishini ta’minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.*

## KROSSVORD



### Krossvord savollari:

**Eniga**

1. O‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi nima deb yuritiladi?
2. Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro dastur nima deb nomlanadi?
5. Matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot dasturi bu - ?
6. Kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot bu - ?
7. “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”. Ushbu fikr muallifi kim edi?

**Bo‘yiga**

3. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil dekabrning qaysi sanasida “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi 997-sonli qarori qabul qilindi?
4. Rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish bu – ?

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring nima deba ataladi?**

A) PISA
b) RIRLS
c) TIMSS
d) ICILS

**2. Kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot nima deb ataladi?**

A) PISA

b) RIRLS
c) TIMSS
d) ICILS

**3. "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" deb kim ta'kidlagan?**

A) I.A.Karimov
b) Sh. M. Mirziyoev
C) H.Umarova
d) Q.Sharipov

**4. Rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish bu - ?**

A) PISA
b) RIRLS
c) TIMSS
d) TALIS

**5. O'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi nima deb ataladi?**

A) PISA
b) RIRLS
c) TIMSS
d) ICILS

**6. Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot nima deb ataladi?**

A) PISA
b) RIRLS
c) TIMSS
d) ICILS

**7. "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida"gi 997-sonli qarori qachon qabul qilingan?**

A) 2017 yil 8 dekabr
b) 2019 yil 8 dekabr
c) 2020 yil 8 dekabr
d) 2018 yil 8 dekabr

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**

Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



## 8-AMALIY MASHG'ULOT
## BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni izlash, tahlil qilish, tanlash, to'g'ri va mas'uliyatli foydalanish bo'yicha axborot madaniyatini shakllantirish;
- Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli muhitda samarali ishlash ko'nikmasini shakllantirish;
- Axborot xavfsizligi va intellektual mulk huquqlariga hurmat bilan yondashish ko'nikmalarini rivojlantirish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Axborot madaniyati tushunchasini anglaydi, axborotni qabul qilish, tahlil qilish, baholash, saqlash va ulashish jarayonlarida axloqiy va huquqiy me'yorlarga amal qilish mohiyatini tushunadi.
- Axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi, ishonchli manbalarni ajratish, so'nggi ilmiy va amaliy ma'lumotlarni topish, noto'g'ri axborotni aniqlashni o'rganadi.
- Raqamli savodxonlikni rivojlantiradi, turli axborot texnologiyalaridan (Google Scholar, masofaviy ta'lim platformalari, sun'iy intellekt vositalari) foydalanish malakalariga ega bo'ladi.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.

9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.

*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball:
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0.6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Bo'lajak o'qituvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Axborot madaniyati nima?
2. Axborot savodxonligi deganda nimani tushunasiz?
3. Axborot manbalarining ishonchliligini qanday aniqlash mumkin?
4. Axborot etikasi nima bilan bog'liq?
5. Axborot xavfsizligi nima?
6. Bo'lajak o'qituvchi axborotdan qanday pedagogik maqsadlarda foydalanishi kerak?
7. Fake news (soxta yangiliklar) nima va ularni qanday aniqlash mumkin?
8. Axborotning dolzarbligi qanday aniqlanadi?
9. Ma'lumot almashishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish nega muhim?
10. Axborotni qayta ishlash deganda nimani tushunasiz?
11. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'limdagi roli nimada?

*3-ilova*

**"Pedagogik mozaika" interfaol metodi oraqali bo'lajak o'qituvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish**



***Mazmuni:** "Pedagogik mozaika" – bu interfaol ta'lim metodlaridan biri bo'lib, talabalar kichik guruhlarda ishlash orqali mavzuni chuqur o'rganadi. Har bir guruh alohida pedagogik g'oya yoki tamoyilni tahlil qiladi, so'ngra boshqa guruh a'zolari bilan o'z bilimlarini almashib, umumiy xulosani shakllantiradi. Bu metod mavzuni qisqa vaqt ichida samarali o'zlashtirish va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.*

**1- bosqich: Boshlang'ich tayyorgarlik (2 daqiqa)**

- Guruhlar 4-5 kishidan tashkil topgan guruhlarga bo'linishadi.
- Har bir guruhga **1 ta asosiy pedagogik g'oya** beriladi
- Har bir guruh o'z mavzusini muhokama qilishga tayyorlanadi.

**2-bosqich: Muhokama va ma'lumotlarni to'plash (5 daqiqa)**

- Har bir guruh o'z mavzusi bo'yicha muhim jihatlarni muhokama qiladi.
- Mavzuga oid O'zbek xalq pedagogikasi va islom ta'limotidagi muhim fikrlarni aniqlaydi.
- Guruh a'zolari qisqa xulosalar yozib oladi.

**3-bosqich: "Mozaika" yaratish (5 daqiqa)**

- Guruh a'zolari boshqa guruh a'zolari bilan almashinib, o'z mavzusi bo'yicha tushuntirish beradi.
- Har bir ishtirokchi turli guruhlar fikrlarini tinglab, umumiy xulosalarni (mozaikani) shakllantiradi.

**4-bosqich: Yakuniy xulosa va baholash (3 daqiqa)**

- Har bir guruhning vakili qisqacha o'z mavzusini sharhlaydi.
- Barcha guruhlarning xulosalari jamlanadi va umumiy pedagogik model shakllantiriladi.
- O'qituvchi qisqa tahlil qilib, mavzuning dolzarbligi haqida fikr bildiradi.

**Guruhlar uchun mavzular:**

| | |
|---|---|
| **1-guruh uchun** | Siz bo'lajak o'qituvchi sifatida o'quvchilarda axborotni tanlash, tahlil qilish va qayta ishlash madaniyatini qanday shakllantirasiz? |
| **2-guruh uchun** | Qanday usullar bilan o'quvchilarga ishonchli axborotni ajrata olish ko'nikmasini berish mumkin? |
| **3-guruh uchun** | Axborot xavfsizligi va raqamli etikani o'quvchilarga o'rgatishda bo'lajak o'qituvchi qanday yondashuvni tanlashi kerak? |
| **4-guruh uchun** | Axborotga bog'liq holda ishlashda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kompetentsiyalarini qanday rivojlantirish mumkin? |

**Kichik guruhlarda ishlash qoidalari:**

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
2. Guruh ishlarida o'zaro faol ishtirok eting.
3. Berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashing.
4. Agar yordam kerak bo'lsa, murojaat qiling.
5. Agar sizdan yordam so'rashsa, yordam bering.
6. Guruh taqdimotida hamma ishtirok etishi shart.

*4-ilova*

**Ushbu mavzu yuzasidan olgan bilimlaringiz yordamida "Sinkveyn" strategiyasi bajaring.**

J.Still, K.Meredis, Ch.Temil[1] tomonidan ishlab chiqilgan "O'qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi"da har bir talaba va talabalar guruhlarining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini

[1] J.Still, K.Meredis, Ch Temil "Methods for Promoting Critical Thinking"

rivojlantirish uchun "Sinkveyn" strategiyasini qo'llash samarali ekanligi aytiladi. Bu o'rinda strategiyaning mohiyati bilan tanishib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Sinkveyn (fransuzcha "besh qator" ma'nosini anglatadi) ma'lumotlarni sintezlash (alohida ma'lumotlar asosida yaxlit g'oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, u asosida o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma'lumotlar to'planadi; har bir o'quvchi (talaba) ushbu ma'lumotlar yig'indisi (qofiyasiz she'r)ni o'z so'zlari bilan turli variant yoki nuqtai nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega

**Sinkveyn tuzish** – murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so'z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo'lib, bu jarayon mavzuni puxtaroq o'zlashtirish, ma'lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi

Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. Odatda, sinkveyn tuzish besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun:

| | |
|---|---|
| 1-bosqich | Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi) |
| 2-bosqich | Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (odatda 2 ta sifat tanlanadi) |
| 3-bosqich | Mavzu doirasida tashkil etiladigan xatti-harakat uchta so'z bilan ifodalanadi (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi) |
| 4-bosqich | Mavzuga nisbatan munosabatni anglatadigan to'rtta so'zdan iborat fikr yoziladi (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi) |
| 5-bosqich | Mavzu mohiyatini takrorlovchi, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta gap yoziladi (mavzuga doir sinonimlar yoziladi) asosida gap |

**Sinkveynlar quyidagi holatlarda samarali sanaladi:**

- Murakkab axborotni sintezlashda
- Talabalarning bilimlarini baholashda
- Talaba tomonidan ijodiy ishlanmalarning taqdim etilishida

Sinkveynlar samaralidir

*5-ilova*

Talabalar "Muammo va yechim" metodi orqali pedagogik faoliyatda uchraydigan muammoni aniqlaydi, uning sabablarini tahlil qiladi va mumkin bo'lgan yechim yo'llarini ishlab chiqadi .

Texnologiya talabalarga ular tomonidan mavzu bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o'z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o'rganilayotgan muammo bo'yicha muayyan masalalarni hal etish, ma'lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo'llarini topish asosida talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko'nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, talabalarga o'zlarida ijobiy fazilatlarni ko'proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

**Izoh:** *1. "Aqliy hujum" vaqtida guruhlar o'qituvchi tomonidan bayon etilgan fikrning uchta jihati, omili bo'yicha o'z mulohazalarini erkin bayon etadi. O'qituvchi ularni yozuv taxtasi yoki vatman qog'oziga yozib boradi.*

*2. Topshiriq bajarilishidan avval o'qituvchi guruhlarga vatman qog'ozlardagi sxemani to'ldirish lozimligini, uning tartibini tushuntiradi.*

*3. Kichik guruhlar quyidagi sxema asosida topshiriqlarni bajaradi:*

| Muammo | Muammoning kelib chiqish sabablari | Muammoni hal qilish yechimlari | Sizning xulosangiz |
|---|---|---|---|
| O'qituvchi dars yoki tarbiya ishlarida aniq, o'lchanadigan maqsad qo'ya olmaydi. | | | |
| Dars mazmuni zamonaviy hayot va texnologiyalar bilan integratsiyalashmagan, eski stereotiplarga asoslangan. | | | |
| Darslar asosan ma'ruzaviy, passiv usullarda o'tiladi, interaktiv yondashuv yetishmaydi. | | | |
| Ta'lim texnologiyalari (kompyuter, loyiha, test, multimedia) mavjud bo'lsa-da, o'qituvchi undan samarali foydalana olmaydi. | | | |
| Dars yakunida natija tahlil qilinmaydi, o'quvchining o'z fikri eshitilmaydi, o'qituvchi o'z faoliyatini baholamaydi. | | | |
| Pedagogik faoliyat markazida o'qituvchi turadi, o'quvchi ehtiyojlari, qobiliyati e'tiborga olinmaydi. | | | |

*7-ilova*

**Talabalar bo'lajak o'qituvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos ahamiyati xususida "SWOT-tahlil" strategiyasi orqali tahlil qiling!**

Strategiya muammoning asosiy to'rt jihatini yoritishga xizmat qiladi. Talabalar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o'rganish orqali mohiyatini

yoritadi, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadi.

U yordamida muammoning quyidagi to'rt jihati tahlil qilinadi:

| | |
|---|---|
| S | Kuchli (ustun) jihatlari (hal etilayotgan muammoning afzalliklarini yoritish) |
| W | Kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta'sirini o'rganish) |
| O | Imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo'llarini izlash) |
| T | Tahdidni o'rganish (maqsadga erishish yo'lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillarining ta'siri aniqlash) |

**Mashg'ulotlarda strategiyani qo'llash tartibi quyidagicha:**

O'qituvchi talabalarni strategiyaning mohiyati bilan tanishtiradi

O'qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratadi

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (6-10 daqiqa) belgilanadi

Guruhlarga bir xil yoki bir necha xil muammoni hal etish topshirig'i beriladi

Guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadi

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhdan 1 nafar vakil guruh ishi bilan jamoani tanishtiradi

Guruhlarning ishlari o'qituvchi va jamoa tomonidan muhokama qilinadi

O'qituvchi jamoaning fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni эълон қилади

O'qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg'ulotni yakunlaydi

***Izoh:*** *strategiyani qo'llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Bunday hollarda o'qituvchi strategiyaning asosiy mohiyati yoki biror bosqichini talabalarning intelektual darajasiga moslab, unga tushunarli so'zlar bilan ifodalashi (o'zgartirishi) mumkin. O'qituvchi tomonidan talabalarga strategiyaning mohiyati, afzalliklari haqida yetarlicha ma'lumot berilishi ular tomonidan hal etiladigan muammo mohiyatining to'la tushunilishini ta'minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.*

## KROSSVORD



**Krossvord savollari:**

**Eniga**

1. Kimning tashabbusi bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (oldingi Toshkent xalq xo'jaligi instituti) qoshida Iqtisodiy kibernetika fakulteti ochilgan?
2. Kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan bog'liq inqilob nechanchi inqilob edi?

**Bo'yiga**

3. Jamiyatni axborotlashtirish ostida kim ushbu texnologiyalarni ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalariga joriy etish jarayonini tushunadi?
4. Axborotlashgan jamiyat darajasiga eng yaqin kelgan davlatlarga AQSh, .........., G'arbiy Yevropa davlatlari kiradi. Nuqatlar o'rniga mos tegishli mamlakatni qo'ying.
5. Birinchi informatsion inqilob nimaning kashf etilishi bilan bog'liq edi?
6. Axborotlashtirishning .......... – axborot jamiyatini yaratish va unga o'tish. Nuqtalar o'rniga mos tegishli so'zni toping.
7. Nechanchi information inqilob "Axborotlashgan jamiyat" rivogiga asos soldi?

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

**1. Axborot savodxonligi va insonning butun hayoti davomida oladigan ta'limi bo'yicha "Axborot jamiyatining mayoqlari" Aleksandriya deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?**

A) 2005

b) 2006
c) 2007
d) 2008

**2. YuNESKOning Ta'limda axborot texnologiyalari Instituti (TATI) tomonidan qachon "*Media savodxonlik va yangi gumanizm*" nomli monografiya nashr qilindi?**
A) 2010
b) 2011
c) 2012
d) 2013

**3. Axborotlar bilan maqsadga intilib ishlashni bilish va axborotlarni olish uchun, qayta ishlash, kompyuterli informatsion texnologiyani va zamonaviy texnik vositalarni va usullarni qo'llashni anglatuvchi tushuncha bu - ?**
a) Axborot iste'molchilari
b) Axborot xizmatlari
c) Axborotlashgan jamiyat
d) Axborot madaniyati

**4. Axborot bozoridagi alohida tovar turi bu - ?**
a) Axborot iste'molchilari
b) Axborot xizmatlari
c) Axborotlashgan jamiyat
d) Axborot madaniyati

**5. "Informatsion inqilob" necha davrni o'z ichiga oladi?**
A) 5 ta davr
b) 4 ta davr
C) 3 ta davr
d) 2 ta davr

**6. Mediata'lim bo'yicha Gryunvald (Polsha) Deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?**
A) 1984
b) 1985
c) 1983
d) 1982

**7. "Informatsion portlash" qachon ro'y bergan?**
a) XX asr o'rtalari
b) XXI asr boshi
c) XIX asr uchinchi choragi
d) XVIII asr oxiri

**8. Axborotlashgan jamiyat vazifalaridan biri qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
a) Inqiroz oqibatlarini yumshatishdan iborat.
b) qaysidir vositalarning manbasi yoki zahirasidir.
c) Vaqt o'tishi bilan axborot resurslarining ahamiyati ortib boradi.
d) To'g'ri javob berilmagan.

**9. Resurs deganda nimani tushunasiz?**
a) Inqiroz oqibatlarini yumshatish
b) qaysidir vositalarning manbasi yoki zaxirasi
c) Vaqt o'tishi bilan axborot resurslarining ahamiyati ortib borishi
d) To'g'ri javob berilmagan

**10. Milliy axborot resurslari tushunchasi qachon vujudga kelgan?**
a) XX asr 80- yillari
b) XX asr 70-yillari
c) XX asr 60-yillari
d) XX asr 50-yillari

**11. Axborot iste'molchilari kimlar hisoblanadi?**
a) Jismoniy shaxslar
b) tashkilotlar
c) Hukumat organlari
d) Barcha javoblar to'g'ri

**12. Zamonaviy axborot ilmi asoschilaridan biri?**
a) Marshall Maklyuen
b) S.S. G'ulomov
c) T.Sh. Shodiev
d) V.Q.Qobulov

**13. Axborot savodxonligi bu - ?**
a) qaror qabul qilish va muammolarni tahlil qilish maqsadida axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, generatsiya qilish, saqlash va namoyish qilish uchun kerak bo'lgan kompetensiyalar to'plamidir
b) tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qila bilish va undan o'z fikrini bayon etishda foydalanish, mustaqil ta'lim olish qobiliyati, davlat faoliyati va jamiyatda kechayotgan demokratik jarayonlarda ishtirok etish, xabardor fuqaro va o'z kasbining ustasi bo'lishga tayyor bo'lish.
c) ma'lum foydalanuvchi (yoki foydalanuvchilar guruhi)ning ma'lum mavzuga oid ma'lumotga bo'lgan ehtiyojidir
d) To'g'ri javob berilmagan

**14. Axborotga bo'lgan ehtiyoj deganda nimani tushunasiz?**
a) qaror qabul qilish va muammolarni tahlil qilish maqsadida axborotni olish, tushunish, baholash, moslash, generatsiya qilish, saqlash va namoyish qilish uchun kerak bo'lgan kompetensiyalar to'plamidir
b) tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qila bilish va undan o'z fikrini bayon etishda foydalanish, mustaqil ta'lim olish qobiliyati, davlat faoliyati va jamiyatda kechayotgan demokratik jarayonlarda ishtirok etish, xabardor fuqaro va o'z kasbining ustasi bo'lishga tayyor bo'lish.
c) ma'lum foydalanuvchi (yoki foydalanuvchilar guruhi)ning ma'lum mavzuga oid ma'lumotga bo'lgan ehtiyojidir
d) Barcha javoblar to'g'ri

**15. "Axborot jamiyatining mayoqlari" Aleksandriya deklaratsiyasi qachon qabul qilindi?**
a) 2005

b) 2006
c) 2007
d) 2008

### Mustaqil ta'lim topshirig'i



Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti, 2024 yil 218 bet



## 9-AMALIY MASHG'ULOT
## PEDAGOGIK FAOLIYATDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tushuntirish;
- Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari va ularni samarali qo'llash bo'yicha nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- Bo'lajak o'qituvchilarda raqamli texnologiyalarning innovatsion texnologiyalar yordamida interaktiv, sifatli va zamonaviy darslarni tashkil etishga tayyorlash.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Raqamli texnologiyalar tushunchasini, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan asosiy raqamli vositalar (interaktiv doska, onlayn platformalar, sun'iy intellekt, ta'limiy ilovalar) bilan tanishadi.
- Zamonaviy raqamli platformalarda ishlashni o'rganadi, Google Classroom, Zoom, Quizizz, Kahoot, Canva kabi platformalarda amaliy mashqlar bajaradi.
- Raqamli xavfsizlik va etikani tushunadi, raqamli muhitda madaniyatli muomala, mualliflik huquqi, shaxsiy axborotni himoya qilish qoidalarini o'zlashtiradi.

### Adabiyotlar:


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv

qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.

*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball:
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Raqamli texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Pedagogik faoliyatda AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) qanday rol o'ynaydi?
3. Dars jarayonida foydalaniladigan eng mashhur raqamli platformani ayting.
4. Prezentatsiya tayyorlashda qaysi dastur eng ko'p qo'llaniladi?
5. Elektron test tuzishda qanday vositalardan foydalaniladi?
6. Raqamli texnologiyalar ta'limda qanday afzalliklar beradi?
7. Raqamli xavfsizlik nima degani?
8. Onlayn dars jarayonida mualliflik huquqini buzmaslik uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

11. Sun'iy intellektdan ta'limda qanday foydalanish mumkin?
12. Multimedia vositalari dars samaradorligiga qanday ta'sir qiladi?
13. O'quvchini baholash uchun raqamli texnologiyalar qanday imkoniyatlar yaratadi?
14. "Raqamli pedagog" deganda qanday o'qituvchi tushuniladi?
15. Raqamli vositalardan noto'g'ri foydalanish qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

*3-ilova*

**Talabalarga "Tarmoqli tafakkur" metodi orqali Pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish tizimini aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o'tadi.**





***bu interfaol metod bo'lib, talabalar o'quv mavzusi bo'yicha ma'lumotlarni tarmoqlash, bog'liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilish orqali tushunchalarni chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Ushbu metod pazzlga o'xshash bo'lib, lekin bunda bo'laklarni joyiga qo'yish emas, balki ularni o'zaro bog'lash va keng tarmoqqa aylantirish jarayoni amalga oshiriladi.***

*4-ilova*

**Ushbu mavzu yuzasidan olgan bilimlaringiz yordamida "Yalpi fikriy hujum" strategiyasi bajaring.**

Strategiya J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar talabalardan iborat guruhlarda qo'llash mumkin. U talabalar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun zarur sharoitni yaratib berishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlarda strategiyani qo'llash tartibi quyidagicha:

O'qituvchi talabalarni strategiyaning mohiyati bilan tanishtiradi

Talabalar 5 yoki 6 nafardan iborat kichik guruhlarga biriktiriladi

Kichik guruhlarga amaliy yoki ijodiy topshiriqlar beriladi

Kichik guruhlar 15 daqiqa mobaynida topshiriqlarni bajaradi

Topshiriqlar bajarilgach, har bir guruhdan bir nafar vakil yechimlar haqida axborot beradi

Kichik guruhlarning ishlari (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va jamoa tomonidan muhokama qilinib, baholanadi

O'qituvchi jamoaning fikriga tayanib, eng yaxshi ishni e'lon qiladi

O'qituvchi har bir guruh ishini baholab, mashg'ulotni yakunlaydi

*5-ilova*

Talabalar "Zakovatli zukko" strategiyasi metodi orqali **pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish** mavzusidagi bilimlarni mustahkamlashi tushuntiriladi.

Bilimlarni puxta o'zlashtirishda talabalarning fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatlariga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu strategiya talabalarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Uni qo'llash o'z xohishiga ko'ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan talabalar uchun qulay imkoniyatni yaratadi.

Bunda talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri, aniq javob qaytara olishlari zarur. Murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish asosida talabalarning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Mashg'ulotlarda strategiyani qo'llash orqali talabalarning tafakkur tezligi quyidagi sxemaga asoslanuvchi faoliyat yordamida aniqlanadi:




| № | Savollar |
|---|---|
| 1 | Pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi nimada? |
| 2 | Siz o'qituvchi sifatida dars jarayonida qanday raqamli vositalardan foydalanishni rejalashtirasiz va nima uchun? |
| 3 | Raqamli xavfsizlik tamoyillariga amal qilmaslik qanday salbiy oqibatlarga olib keladi? |
| 4 | Talaba sizga shikoyat qiladi: "Darslar zerikarli, texnologiya yo'q." Siz qanday chora ko'rasiz? |
| 5 | Agar o'quvchilar onlayn darslarda ishtirok etmaslikni odat qilib olishsa, raqamli vositalar orqali ularga qanday ta'sir o'tkaza olasiz? |
| 6 | ….. |

*6-ilova*

**"Taqqoslash jadvali" metodi**

**Har bir guruh xorij mamlakatlarida pedagogik faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini jadval shaklida taqqoslaydi.**

| | | |
|---|---|---|
| **Germaniya** | Asosiy yondashuv | |
| | Afzalliklari | |
| | Kamchiliklari | |
| | Milliy tajriba bilan taqqoslash | |

| | | |
|---|---|---|
| **AQSh** | Asosiy yondashuv | |
| | Afzalliklari | |
| | Kamchiliklari | |
| | Milliy tajriba bilan taqqoslash | |



| | | |
|---|---|---|
| **Finlyandiya** | Asosiy yondashuv | |
| | Afzalliklari | |
| | Kamchiliklari | |
| | Milliy tajriba bilan taqqoslash | |

| | | |
|---|---|---|
| **O'zbekiston** | Asosiy yondashuv | |
| | Afzalliklari | |
| | Kamchiliklari | |
| | Milliy tajriba bilan taqqoslash | |

**KROSSVORD**




**Krossvord savollari:**

**Eniga**

1. Raqamli texnologiyalar insonlar orasidagi qanday aloqalarni kamaytirishi mumkin?

4. "raqamlashtirish ta'lim muhiti-raqamli

**Bo'yiga**

2. Bo'lajak "Tarbiya" fani o'qituvchisi (ya'ni "Men")da

texnologiyalardan foydalanib o'qitish jarayonida talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhitidir" Ushbu ta'rif kimga tegishli?
5. ....... yuqori tezlikda o'zgarayotgan sohalardan biri qaysi?
6. Adabiyotlarda raqamlashtirish muhitida ishlash layoqati nechta asosiy elementlaridagi tarkib topganligi keltirilgan?
7. Raqamli texnologiyalar o'qituvchilar uchun o'quvchilarning natijalarini tahlil qilish, o'quvchilarni .........., o'quv jarayonlarini baholash va talabalar haqida ma'lumotlarni to'plashga yordam beradi? Nuqtalar o'rniga qaysi so'z mos keladi?

qanday kasbiy sifatlar shakllantirilishi lozim?
3. Raqamli ta'lim muhitida ishlash uchun bo'lajak "Tarbiya" fani o'qituvchilarining kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish ta'lim jarayonida nechta imkoniyat yaratiladi?

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor qachon qo'llanilgan?**
A) 1978-yil
b) 1976-yil
c) 1979-yil
d) 1977-yil
**2. "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor qaerda qo'llanilgan?**
A) Balonya deklaratsiyasida
b) Salamanka deklaratsiyasida
c) Rim klubida
d) to'g'ri javob yo'q
**3. Hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi nima deb ataladi?**
A) ijtimoiylashuv
b) demokratlashuv
c) globallashuv
d) integratsiyalashuv
**4. Qaysi olimning fikricha, "raqamlashtirish ta'lim muhiti – raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitish jarayonida talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhitidir".**
A) S.D. Kazakova
b) Kaldibekova
c) Kan-Kalik
d) Klark
**5. Raqamli texnologiyalar o'qituvchilar uchun o'quvchilarning natijalarini tahlil qilish, o'quvchilarni qaysi ko'nikmlarini shakllantirishga yordam beradi?**
a) Boshqarish
b) o'quv jarayonlarini baholash
c) talabalar haqida ma'lumotlarni to'plash



d) barcha javoblar to'g'ri
**6. Adabiyotlarda raqamlashtirish muhitida ishlash layoqati qaysi elementlaridagi tarkib topganligi keltirilgan?**
a) raqamli muhitda internet xizmatidan foydalanish ko'nikmasi
b) raqamli kompententlar axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasi
c) raqamli xavsizlik-bu internet tarmoqlaridagi xavfsizlik qoidalarini bilishi
d) barcha javoblar to'g'ri
**7. Raqamli ta'lim muhitida ishlash uchun bo'lajak "Tarbiya" fani o'qituvchilarining kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish ta'lim jarayonida nechta imkoniyat yaratiladi?**
a) 3
b) 4
c) 5
d) 6
**8. Bo'lajak "Tarbiya" fani o'qituvchisi (ya'ni "MEN")da quyidagi kasbiy sifatlar shakllantirilishi lozim?**
a) Kommunikativlik
b) Tajriba sinov o'tkazish
c) Tadqiqotchilik
d) barcha javoblar to'g'ri
**9. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi ijobiy tomonlari nimlardan iborat?**
a) Interaktivlik va ishdagi birlik
b) Ma'lumotlar ombori
c) Boshqaruv va analitika
d) barcha javoblar to'g'ri
**10. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarga qanday imkoniyatni yaratadi?**
a) dunyodagi amaliyotlarni ko'rish
b) o'z fikrlarini bayon etish, shaxsiy fikrlarini ifodalash
c) ilmiy maqolalar bilan ishlash, vazifalarini bajarish
d) barcha javoblar to'g'ri

### Mustaqil ta'lim topshirig'i



Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti, 2024 yil 218 bet

## 10-AMALIY MASHG‘ULOT
## TALABALARNI UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY INTERFAOL TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHGA O‘RGATISH



**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**
- Bo‘lajak o‘qituvchilarni umumta’lim maktablarida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zamonaviy interfaol o‘qitish texnologiyalarini tanlash;
- Interfaol o‘qitish texnologiyalarini qo‘llash va ularni didaktik maqsadlarga moslashtirishga o‘rgatish;
- Interfaol o‘qitish texnologiyalarni qo‘llash orqali ularning amaliy-pedagogik kompetensiyasini oshirish.



**Amaliy mashg‘ulotda kutiladigan natija:**
- Interfaol o‘qitish texnologiyalari mohiyatini tushunadi, “interfaol” tushunchasini, uning an’anaviy usullardan farqini, ta’lim samaradorligiga ta’sirini anglaydi;
- Dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llashni rejalashtiradi, darsning maqsadi, bosqichlari va fan xususiyatlarini hisobga olib, interfaol usullarni tanlaydi;
- Interfaol texnologiyalarni axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtiradi;
- Interfaol texnologiyalarni raqamli vositalar (slaydlar, onlayn testlar, video darslar) bilan bog‘lab qo‘llashga harakat qiladi.

### Adabiyotlar:

1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: “DURDONA” nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – Termiz.: “ILM-21” nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: “SANO-STANDART” nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: “Sahhof”, 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. “Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligining omili” Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov. S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro‘zieva D.I., Tolipov O‘.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.





8. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator’s Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela “Didactics of smart pedagogy”. Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.


*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta’limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Talabalarni umumta’lim maktablarida o‘qitishning zamonaviy interfaol texnologiyalarni qo‘llashga o‘rgatish mavzusiga doir blits-so‘rov savollari**

1. O‘qituvchining umumiy madaniyati nima?
2. Kasbiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlarini sanab bering.
3. O‘qituvchining kasbiy etikati nima va u qanday namoyon bo‘ladi?
4. O‘qituvchining nutqiy madaniyati qanday ahamiyatga ega?
5. O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari ta’lim jarayonida qanday rol o‘ynaydi?
6. O‘qituvchining axloqiy madaniyatini rivojlantirishning samarali usullari nimalardan iborat?
7. O‘qituvchining kasbiy imidjiga qanday elementlar kiradi?
8. Kasbiy madaniyatni shakllantirishda ta’lim muassasasining roli qanday?
9. O‘qituvchining o‘zini o‘zi tahlil qilish madaniyati nima?
10. O‘qituvchining jamoaviy ishdagi madaniyati qanday rivojlanadi?
11. Pedagogning shaxsiy va kasbiy madaniyati o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
12. O‘qituvchining madaniyatini oshirish uchun qanday treninglar samarali bo‘lishi mumkin?

*3-ilova*

**Talabalarga o‘qituvchining umumiy va kasbiy madaniyati mavzusida ma’lumotlarni “Fikrlar daraxti” metodi orqali tarmoqlash, bog‘liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o‘tadi.**



***Bu interfaol ta’lim metodi bo‘lib, talabalar mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini tarmoqlangan tizimda shakllantirish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Metod vizual tarzda fikrlarni tuzish, bog‘lash va mustahkamlashga yordam beradi.***

*4-ilova*

Talabalarga o'qituvchining umumiy va kasbiy madaniyati mavzusi asosida olgan bilimlaridan foydalanib "Delfi" strategiyasini bajarishini aytib o'tadi.

Strategiya taklif qilinayotgan muqobil javoblar ichidan eng yaxshisini tanlashga yordam beradi. Buning uchun jamoaning a'zolaridan muayyan mavzu mohiyatini ochib beruvchi eng maqbul javoblarni bildirish taklif qilinadi. Bildirilgan javob variantlari to'planadi. So'ngra jamoaning har bir a'zosidan ma'lum ketma-ketlikda mavjud javoblarning har biriga baho berish talab qilinadi.

Ta'limda strategiyadan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Talabalarga tahlil asosida ma'lum jarayonning yuz berishiga olib kelgan beshta sababni aniqlash va ular orasidan eng muhim sababni topish vazifasi yuklatiladi

↓

Muhokama qatnashchilari dastlab muammolarning barcha sabablarini muhimlik darajalari bo'yicha ajratadi

↓

Har bir qatnashchi o'zining muqobil javob variantlaridan birini tanlab, barcha variantlarni shkalalaydi (ya'ni ularni muhimligiga ko'ra darajalarga ajratadi va tartib raqami bilan belgilab chiqadi)

**Taklif qilinayotgan muqobil javoblar**

| № | **Bo'lajak o'qituvchining umumiy va kasbiy madaniyati rivojlantirish usullari** |
|---|---|
| 1 | O'z ustida ishlash, kasbiy o'zgarishlarga ochiqlik. |
| 2 | Etik me'yorlar, pedagogik odob-axloq, muloqot madaniyati bo'yicha mashg'ulotlar; |
| 3 | San'at, adabiyot, musiqa bilan shug'ullanish orqali shaxsiy dunyoqarashni kengaytirish. |
| 4 | Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishish va ularni amaliyotda sinab ko'rish. |
| 5 | Dars kuzatuvlari, muhokamalar, tahlillar orqali o'rganish. |

*5-ilova*

Talabalarga "Labirint" strategiyasi orqali o'qituvchining umumiy va kasbiy madaniyatini tahlil qilishlarini tushuntiradi.

Strategiya talabalarda o'quv va hayotiy faoliyatda uchraydigan turli holat, vaziyatlarni to'g'ri baholash, ulardan chiqa olish, tezlik bilan zarur yechimlarni topish ko'nikmalarini shakllantirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Uni qo'llashda quyidagi tashkiliy vazifalar hal qilinadi:

O'qituvchi talabalar yordamida stullarni doira shaklida joylashtiradi → **Suhbat** ← O'rtaga savat yoki tuvakda gulning qo'yilishi jamoada ijobiy muhitni hosil qiladi

**Mashg'ulotlarda strategiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**

Talabalar stullardan o'rin olib, o'z hayotlarida ro'y bergan qiziq voqealar, hayotiy vaziyatlar haqida o'zaro suhbatlashadi

↓

O'qituvchi suhbat jarayonini kuzatib borib, ma'lum vaziyatni tanlab oladi va talabalarni ana shu vaziyatdan chiqishning samarali yo'lini topishga undaydi

↓

Talabalar o'z xohishlariga ko'ra uch (to'rt, besh, olti va h.k.) nafardan iborat kichik guruhlarni hosil qiladi

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10-15 daqiqa) belgilanadi

↓

Har bir kichik guruh navbat bilan muammoli vaziyatning yechimiga doir qarashlarni og'zaki bayon qiladi

↓

Guruhlar o'z javoblarini bayon qilganidan so'ng, muammoli vaziyat to'g'risida so'z yuritgan kichik guruh ham o'z yechimini aytadi

↓

Kichik guruhlarning yechimlari jamoa tomonidan muhokama qilinadi

↓

Mashg'ulot yakunida o'qituvchi muammoli vaziyatga o'z munosabatini bildirib, o'quvchilarga bu kabi vaziyatlardan chiqish yo'llari yuzasidan tavsiyalarni beradi

↓

O'qituvchi o'quvchilar fikrlarini umumlashtirib, ularning savol-javoblardagi ishtiroki, muammoli savol tuzish mahoratini guruhli yoki yakka tartibda baholab, mashg'ulotga yakun yasaydi

***Izoh:*** *o'qituvchi vaziyatning uch (to'rt, besh, olti va h.k.) yechimlarini aytib, ulardan birini tanlashni taklif etadi, so'ngra nima uchun bu variantni tanlaganliklarining sababini so'raydi.*

*5-ilova*

Talabalarga "Muammo va yechim" metodi orqali talabalar ma'lum bir **muammoni aniqlaydi**, uning sabablarini tahlil qiladi va mumkin bo'lgan **yechim yo'llarini** ishlab chiqadi.




*"Muammo va yechim" metodi talabalarni tanqidiy fikrlashga, tahlil qilishga va real muammolar bo'yicha ijodiy yechimlar topishga o'rgatadi. Ushbu metod o'quvchilarning mavzuga doir muammolarni aniqlab, ularga samarali yechim taklif qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.*

**ASOSIY MUAMMOLAR**

- **An'anaviy yondashuvlardan voz kechishda pedagogik qarshiliklar**
- **Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar o'rtasidagi tafovut**
- **O'qituvchilik amaliyotida interfaol metodlarni qo'llash imkoniyatlarining cheklanganligi**

| | |
|---|---|
| **Guruhlarga bo'lish va muammolarni aniqlash** | Talabalar 3-4 kishilik guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga muammo taqdim etiladi yoki ular o'zlari muammoni aniqlashadi. Har bir guruh o'z muammosi bo'yicha asosiy sabablarni aniqlaydi. |

**Yechim yo'llarini ishlab chiqish (15 daqiqa)**

- Guruhlar muammoni hal qilish uchun 2-3 yechim taklif qilishadi.
- Har bir yechimning afzalliklari va kamchiliklari baholanadi.
- Yechimlar real hayotga mosligi va amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatiga ko'ra tanlanadi.




**Talabalarni real muammolarni tahlil qilishga o'rgatadi. Mustaqil va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Jamoaviy ishlash va yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi.**

**KROSSVORD**




**Krossvord savollari:**

**Eniga**

1. ........ bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning ta'lim-tarbiya vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni

**Bo'yiga**

2. ...... - bu mehnat qurollari bilan mehnat obektlariga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi mashina)ning faoliyatidir. Nuqtalar o'rniga mos so'zni toping.
3. Bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan tashkil topdi. Bu qaysi so'z edi?
4. XVII asrdan hozirgi davrgacha bu qaysi davr

shakllantirish jarayonidir. "Hunar fani" ma'nosini anglatadigan so'z qaysi edi?

8. "Pedagogik rivojlanish davr"larni nechiga bo'linadi?

qaysi davr edi?

5. Qadimgi davrlardan boshlab XVII asrgacha Iindividual pedagog, qo'l bilan ishlaydigan pedagogning pedagogik faoliyati davri bu qaysi davr edi?

7. Texnologiya ishlov berish, ahvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisidie qaysi olim ta'riflagan edi?

**Mavzu yuzasidan test topshiriqlar**

**1. Interfaol so'zining ma'nosini toping?**

A) Inglizcha o'zaro birgalikda harakat qilmoq.

B) Lotincha hamkorlikda ishlamoq.

C) Fransuzcha mahoratli dars o'tmoq.

D) Inglizcha mahorat darsi

**2. Dastlab "texnologiya" tushunchasi qachon fanga kiritildi?**

A) 1871

b) 1872

c) 1873

d) 1870

**3. Pedagogik texnologiya - ta'limning rejalashtiriladigan natijalariga erishish jarayoni tafsiloti deb kim ta'riflagan?**

A) Bespalko

b) Volkov

c) Shepel

d) Lixachev

**4. Texnologiya – bu ?**

a) ishlov berish, ahvolni o'zgartish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi.

b) pedagogikani san'at, mahorat darajasidagi sohasini o'rganuvchi fan.

c) bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqcadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqcadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir

d) o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham professor-o'qituvchi, ham talabani faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui

**5. Interfaol metod bu - ?**

a) ishlov berish, ahvolni o'zgartish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi

b) pedagogikani san'at, mahorat darajasidagi sohasini o'rganuvchi fan

c) bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda yshby maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japayonining mazmunidir

d) o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham professor-o'qituvchi, ham talabani faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

**6. Pedagogik texnologiya bu - ?**

a) ishlov berish, ahvolni o'zgartish san'ati, mahorati, qobiliyati, metodlar yig'indisi.



b) pedagogikani san'at, mahorat darajasidagi sohasini o'rganuvchi fan

c) bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqcadga yo'naltipilgan hamda yshby maqcadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat japayonining mazmynidir

d) o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham professor-o'qituvchi, ham talabani faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmui.

**7. Grafik organayzerlar keltirilgan qatorni belgilang.**

a) Aqliy hujum. Erkin yozish, Asoslangan esse, FSMU, Blits-so'rov

b) Keys-stadi ta'lim texnologiyasi, Loyiha ta'lim texnologiyasi

c) Klaster, B-B-B chizmasi T-chizma. Venn diagrammasi. Konseptual jadval

d) Mustaqil ta'lim texnologiyasi.

**8. Keys-stadi metodi ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida nechanchi yilda qo'llanilgan edi?**

a) 1670

b) 1770

c) 1870

d) 1970

**9. Respublikamizda 2000 yilda qaysi olimning rahbarligi ostida innovatsion texnologiyalar Markazi tashkil etildi?**

a) N.N.Azizxodjaeva

b) U.Nishonaliev

c) N.S.Saidahmedov

d) O'.Tolipov

**10. Mamlakatimizda qachon Respublika ta'lim Markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo'yicha Markaz tashkil etildi?**

a) 1997

b) 1998

c) 1999

d) 1996

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**



Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti, 2024 yil 218 bet

## 11-AMALIY MASHG'ULOT
## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHGA TAYYORLASH



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Bo'lajak o'qituvchilarda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarini tashkil etishning mazmun-mohiyatini yoritish;
- Bo'lajak o'qituvchilarda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarini tashkil etish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- Bo'lajak o'qituvchilarda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarini tashkil etishda maktabdagi real sharoitda mustaqil rejalashtirish, o'tkazish va baholashga tayyorlash.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Sinfdan tashqari ishlar mohiyatini tushunadi, uning maqsadi, vazifalari va turlari haqida to'liq tasavvur hosil qiladi.
- Turli shakldagi ish turlaridan ekskursiyalar, to'garaklar, fan haftaliklari, viktorinalar, adabiy-badiiy kechalar, sport tadbirlari, ekologik aksiyalar kabi tadbirlarni tashkil etish bosqichlarini o'rganadi.
- Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni o'zlashtirib o'quvchilar yoshiga, maktab muhitiga mos ravishda sinfdan tashqari faoliyat uchun reja-ssenariy tuzadi.
- Sinfdan tashqari tadbir loyihasini ishlab chiqadi, va taqdim etadi.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov. S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.


*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Bo'lajak o'qituvchilarni sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga tayyorlash mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Sinfdan tashqari ish nima?
2. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadi nima?
3. Sinfdan tashqari ishlar ta'lim-tarbiya jarayonining qaysi qismiga kiradi?
4. Qaysi shakllar sinfdan tashqari ish turlariga kiradi? Kamida uchtasini sanang.
5. Tarbiyaviy ishni rejalashtirishda nimalar inobatga olinadi?
6. O'quvchilarni sinfdan tashqari ishlarga jalb etishda o'qituvchining roli qanday?
7. To'garak ishlari qanday tashkil etiladi?
8. Ekskursiyalar tarbiyaviy maqsadlarda qanday ishlatiladi?
9. Sinfdan tashqari ishlarni baholashda nimalar hisobga olinadi?
10. Sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishda maktab-pedagogik jamoaning vazifasi nima?
11. Milliy qadriyatlar asosida qanday tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish mumkin?
12. Zamonaviy texnologiyalar yordamida sinfdan tashqari ishlar qanday tashkil qilinadi?
13. "Tarbiyaviy tadbir ssenariysi" deganda nimani tushunasiz?
14. O'qituvchi qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerakki, sinfdan tashqari ishlarni muvaffaqiyatli tashkil qilsin?
15. Sinfdan tashqari ishlar orqali qanday ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar rivojlanadi?

*3-ilova*

**Talabalarga mavzu yuzasidan "Idrok xaritasi" metodi bajarish, ma'lumotlarni tarmoqlash, bog'liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o'tadi.**



***Idrok xaritasi metodi (inglizcha: Concept Mapping Method) — bu o'quvchilarning bilimlarini tizimli tashkil etish, yangi tushunchalarni chuqur anglash va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga yordam beruvchi vizual metodlardan biridir. Bu metod asosan grafik shaklda tushunchalar va ularning o'zaro aloqalarini aks ettirish orqali amalga oshiriladi.***

*4-ilova*

**Bo'lajak o'qituvchilarni sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga tayyorlashga oid bilimlarni mustahkamlash maqsadida "Toifalash" grafik organayzeri bajarishlarini tushuntiradi.**

Grafik organayzer talabalarni o'rganilayotgan mavzuning muhim xususiyat, jihatlarini aniqlash, ma'lumotlarni umumlashtirishga o'rgatadi.

Uni qo'llashda talabalarda mantiqiy fikrlash, muhim xususiyatlarni yorituvchi ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish ko'nikmalari shakllanadi.

**Grafik organayzerni qo'llashda talabalar quyidagilarga e'tiborni qaratadi:**

- Muhim xususiyat (toifa)larni yoritishga nisbatan yagona talab qo'yilmaydi
- Guruhlarga bir xil topshiriq berilganda bir guruhning yechimi ikkinchi guruhning yechimidan farqlanishi mumkin
- Talabalarga o'qituvchi tomonidan mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlar haqida ma'lumot berish mumkin emas, muhim xususiyatlarni izlash jarayoni ham ularning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi shart

!

**Mashg'ulotlarda grafik organayzerdan foydalanish tartibi quyidagicha:**

O'qituvchi muhim xususiyatlari belgilanishi lozim bo'lgan mavzu (masala yoki muammo)ni aniqlab, talabalarni kichik guruhlarga ajratadi

↓

Talabalar tanlangan mavzu (masala, muammo) hamda "Toifalash" grafik organayzerini qo'llash shartlari bilan tanishtiriladi

↓

Kichik guruhlarga ma'lum topshiriqlar beriladi

↓

Kichik guruhlar topshiriqni bajaradi (mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlarni aniqlaydi, ularni jadval yordamida ifodalaydi)

↓

Kichik guruhlar o'z yechimlarini jamoa e'tiboriga taqdim etadi

↓

Jamoa tomonidan kichik guruhlarning ishlari muhokama qilinadi

*5-ilova*

**Bo'lajak o'qituvchilarni sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga tayyorlash mavzusida "Tashviqot guruhi" strategiyasini bajaring!**

Strategiya talabalarda muammoning mohiyatini aniqlash, o'z fikrlarini aniq va qisqa dalilllar asosida bayon qilish orqali ularni ishontirish, muammoning mohiyati bilan tengdoshlarni tanishtirish (ular o'rtasida mavzu mazmunini targ'ib qilish) ko'nikmalarini shakllantiradi.

**Mashg'ulotlarda strategiyani qo'llash tartibi quyidagicha:**

O'qituvchi talabalarni strategiyani qo'llash tartibi bilan tanishtiradi

↓

O'qituvchi talabalarning e'tiboriga bir necha muammoli mavzularni taqdim etadi

↓

Talabalar kichik guruhlarga biriktiriladi

↓

Kichik guruhlar o'z ixtiyoriga ko'ra bittadan mavzuni tanlab olib, uning yechimini topish va jamoa orasida targ'ib etish yo'llarini izlaydi

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlar o'z ishlarini targ'ibot shaklida taqdim etadi

↓

O'qituvchi talabalar bilan birga guruhlarning chiqishini, ijodiy faoliyatini muhokama qilib, yakuniy xulosaga keladi va zarur tavsiyalarni beradi

↓

O'qituvchi jamoa yordamida eng yaxshi chiqishni aniqlab, uni e'lon qiladi

↓

O'qituvchi kichik guruhlarning ishlarini baholab, mashg'ulotga yakun yasaydi

| № | "Tashviqot guruhi" uchun mavzular |
|---|---|
| 1 | Sinfdan tashqari ishlar – o'quv-tarbiyaviy jarayonning ajralmas qismi |
| 2 | Bo'lajak o'qituvchining tarbiyaviy kompetensiyasini shakllantirishda sinfdan tashqari ishlarning o'rni |
| 3 | Sinfdan tashqari ishlar orqali o'quvchilarda ijtimoiy faollik va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish |
| 4 | Milliy qadriyatlarni yosh avlodga singdirishda sinfdan tashqari tadbirlarning |

ahamiyati

5 Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘quvchilarning erkin tashabbuslari va ijodkorligini qo‘llab-quvvatlash

6 Sinfdan tashqari tadbirlar orqali ekologik madaniyatni shakllantirish

7 Sinfdan tashqari ishlar orqali o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish

***Izoh:*** *1. O‘qituvchi tomonidan talabalar e’tiboriga havola etilayotgan muammoli mavzu o‘quv predmeti yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishida bo‘lishi mumkin.*

*2. Guruhlar chiqishlarining qiziqarli, adabiy jihatdan yuqori saviyada, ko‘rgazmali, musiqiy xarakterga ega bo‘lishi talab qilinadi. Chiqishlarning videofilm, slayd yoki kliplar asosida bo‘lishi yanada ta’sirchan, samaralidir.*

*3. Ijodiy guruhlarining chiqishlarini muhokama qilish chog‘ida tanlangan mavzuning dolzarbligi, uning yoritilishi, mavzuni yoritishga bo‘lgan ijodiy yondashuv, jihozlar va yordamchi vositalardan o‘rinli foydalanilganlik, chiqishning targ‘ibot g‘oyalariga boyligi, ta’sirchanligi, tarbiyaviy xarakterga egaligi kabi jihatlarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq sanaladi.*

*4. Guruhlar chiqishlarni tashkil etish uchun o‘zlarini tanishtiruvchi belgi yoki emblema, shuningdek, shior tanlashlari ham mumkin.*

*6-ilova*

**Talabalarda “3x4” strategiyasi orqali yakka holda fikrlab, yechimlarini topish orqali mavzu bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish topshirig‘i.**

Strategiya talabalarni aniq bir muammoni yakka holda fikrlab hal etish, yechimini topish, g‘oyalar orasidan muhimini tanlay bilish, bir necha muhim fikrni umumlashtirish, ular asosida muammo yuzasidan aniq tushuncha hosil qilish va o‘z fikrlarini ma’qullay olishga o‘rgatadi. U talabalarni mustaqil fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash, fikrlarni jamlab, nazariy va amaliy tushunchalar hosil qilish, jamoaga o‘z fikrini o‘tkazish, o‘z fikrini ma’qullash, muammoni yechish va mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘rganilgan barcha mavzular bo‘yicha egallangan bilimlarni amalda qo‘llashga yordam beradi. Strategiya yordamida talabalar topshiriqlarni dastlab individual, so‘ngra kichik guruhlar tartibida yozma shaklda bajaradi.




**Izoh:** *1. Guruhlar sonining to‘rtta bo‘lishi strategiya samaradorligini ta’minlaydi. Bunda mashg‘ulot zerikarli bo‘lmaydi. Agar guruhlar soni 4 tadan ortiq bo‘lsa, guruhlarni ikkita katta guruhlarga ajratish mumkin.*

*2. Tarqatmali materialda ko‘rsatilgan mavzu bo‘yicha 3 ta tayanch tushuncha (so‘z, so‘z birikmasi yoki 3 ta gap) yozish talab etiladi.*

*3. Dastlabki topshiriq bajarilgach, guruhlar soat mili yo‘nalishi bo‘yicha o‘z joylarini o‘zgartiradi (1-guruh 2-guruhning, 2-guruh 3-guruhning, 3-guruh 4-guruhning, 4-guruh 1-guruhning o‘rnini egallaydi). Bu holat har bir guruh o‘zining dastlabki o‘rniga yetib kelgunga qadar davom etadi.*

*4. Guruhlarning taqdimotidan so‘ng har bir o‘quvchi (talaba) ham individual ravishda o‘zining mualliflik ishini namoyish qilishi mumkin.*

**Mashg‘ulotda strategiyani qo‘llash tartibi quyidagicha:**

1. Talabalar ularning soniga ko‘ra kichik guruhlarga ajratiladi.
2. O‘qituvchi talabalarni strategiya mohiyati va uni qo‘llash tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir kichik guruhga yuqori qismida yozuvi bo‘lgan qog‘ozlar tarqatiladi.
4. Kichik guruhlar belgilangan vaqt mobaynida topshiriqni bajaradi.
5. Topshiriq bajarilgach, guruhlar soat mili yo‘nalishi bo‘yicha o‘z joylarini o‘zgartiradi.
6. Bir guruhning o‘rnini olgan 2-guruh avvalgi guruhning ishini davom etiradi (ya’ni avvalgi guruh ishi bilan tanishib, unga uchtadan yangi fikr yozib qo‘yadi).
7. Guruh a’zolari yana bir bor joylarini almashtiradi.
8. Guruhlarning almashinuvi ular dastlabki o‘rinlariga qaytib kelgunlaricha davom ettadi.
9. O‘z joylariga qaytib kelgan kichik guruhlar tarqatmali materiallar asosida to‘plangan barcha fikrlarni o‘rganadi va umumlashtirib, yaxlit holatga keltiradi.
10. Har bir guruhdan bir nafar vakil chiqib, guruh ishini taqdim etadi.
11. O‘qituvchi guruh (o‘quvchilar)ning ishlarini izohlab, ishlanmalarni baholaydi.

## KROSSVORD




### Krossvord savollari:

**Eniga**

2. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari qanday mashg'ulotlar sanaladi?
4. Ekskursiyalar 3 guruhga ya'ni ommaviy, guruhli va ........ ga bo'linadi? Nuqtalar o'rniga mos guruhni aniqlang!
6. O'quvchilarda kuzatish va tahlil qilishga oid ko'nikmalarini shakllantirishda qaysi ta'lmni tashkil etish shakllarining o'rni katta?
7. O'quvchilarni qamrab olish, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari va o'quvchilaming faoliyatini tashkil etish belgilariga ko'ra nechta asosiy turga ajratiladi?

**Bo'yiga**

1. Ta'limning yordamchi shakllari o'quvchilarning .......... asosida tashkil etiladi? Nuqtalar o'rniga mos so'zni aniqlang!
3. Ta'limni tashkil etishning nechta shakllari mavjud?
5. Lotinchadan tarjima qilganda omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi tushunchalarni bildiruvchi so'z nima deb nomlanadi?

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Maktabning o'quvchilar bilan olib boradigan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari xilma xil ta'lim-tarbiya qanday nom olgan?**

A) sinfdan tashqari ishlar
B) fakultativ mashg'ulotlar
C) fan to'garaklari
D) olimpiadalar

**2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga qaysilar kiradi?**

A) o'simliklar o'stirish, gullar, sabzvotlar yetishtirish
B) darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish
C) o'zlashtirishda orqada qoluvchi, yordam talab o'quvchilarni o'z vaqtida aniqlab olish
D) ulgurmovchi va ikki yil bir sinfda qoluvchi o'quvchilar bilan guruh yoki yakkama-yakka shaklda uzluksiz ravishda ishlashni ta'minlash

**3. Qanday ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir?**

A) Jamoaviy ishlar
B) Individual ishlar
C) Sinfdan tashqari ishlar
D) Sinf – dars

**4. Turli joylarga sayyohotlar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish foaliyati, yosh tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar – qaysi usul qoidasi hisoblanadi?**

A) Og'zaki ish usullari
B) Ko'rgazmali ish usullari
C) Sinfdan tashqari individual ish
D) Amaliy ish olib borish usullari

**5. Maktab muzeylari, mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari – qaysi ish usullariga berilgan ta'rif hisoblanadi?**

A) Ko'rgazmali ish usullari
B) Og'zaki ish usullari
C) Sinfdan tashqari individual ish
D) Amaliy ish olib borish usullari

**6. "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi" Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qachon qabul qilingan?**

A) 1992-yil
B) 1993-yil
C) 1995- yil
D) 1996- yil

**7. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga kamida necha yil pedagogik ish stajiga ega bo'lgan inson tayinlanadi?**

A) 10 yil
B) 6 yil
C) 5 yil

D) 3 yil

**8. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimi qaysi bo'lim tomonidan tayinlanadi va bo'shatiladi?**

A) Oliy ta'lim vazirligi

B) Mahalla komiteti

C) Maktab direktori

D) Maktabgacha va maktab ta'limi

**9. Bir necha kishilarning muayyan maqsad yo'lida birlashuvidan iborat tashkiliy guruh nima deyiladi?**

A) Jamoa

B) Oila

C) Sinf

D) to'g'ri javob berilmagan

**10. "Bolalar sportini rivojlantirish" davlat dasturi doirasidagi tadbirlar qancha vaqt davomida amalga oshirilishi kerak?**

A) Har 2 yilda

B) Doimiy ravishda

C) Har 5 yilda

D) Har 6 oyda

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**



Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti, 2024 yil 218 bet



## 12-AMALIY MASHG'ULOT
## TALABALARNI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASHKIL ETILADIGAN O'QUV VA PEDAGOGIK AMALIYOTIGA TAYYORLASH



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy pedagogik deformatsiya tushunchasining mazmun-mohiyatini tushuntirish;
- Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy pedagogik deformatsiyaning kelib chiqish tarixini o'rgatish;
- Kasbiy pedagogik deformatsiya yuzasidan tadqiqotlarning boshlanishida xorijlik va mahalliy olimlarning qarashlarini o'rgatish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Kasbiy pedagogik deformatsiya tushunchasining pedagogik faoliyatga ta'siri, asosiy belgilari, shakllanish bosqichlari haqida bilimga ega bo'ladi.
- Deformatsiyaning sabablari va turlari bilan tanishadi, doimiy zo'riqish, emotsional charchoq, motivatsiyaning pasayishi, kommunikativ muammolar, professional toliqish kabi omillarni tahlil qiladi.
- Kasbiy pedagogik deformatsiyada o'qituvchining darsdagi, o'quvchi va hamkasblar bilan munosabatdagi salbiy o'zgarishlarini baholashni o'rganadi.

**Adabiyotlar:**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., -416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv

qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.

*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball:
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Kasbiy pedagogik deformatsiyaning mazmun mohiyati mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Kasbiy pedagogik deformatsiya nima?
2. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning asosiy sabablari qanday?
3. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning qanday turlari mavjud?
4. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning pedagogik faoliyatdagi salbiy oqibatlari nimalardan iborat?
5. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning psixologik jihatlari haqida nimalarni bilasiz?
6. O'qituvchining ruhiy holati pedagogik deformatsiya bilan qanday bog'liq?
7. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning oldini olishda pedagogning professional rivojlanishining roli qanday?
8. Kasbiy deformatsiyaning asosiy simptomlari nimalardan iborat?
9. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning o'qituvchi va o'quvchi munosabatlariga ta'siri qanday bo'ladi?

*3-ilova*

**"3-2-1 Tezkor" metodi talabalarning tezkor va aniq javob berish qobiliyatini rivojlantiramiz.**




***Bu metod o'quvchilarning tezkor fikrlash, aniqlik bilan javob berish va vaqtni samarali boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv qisqa vaqt ichida ma'lumotni tushunish, uni qayta ishlash va xulosa chiqarish imkonini beradi.***

| | |
|---|---|
| **Topshiriq:** Kasbiy pedagogik deformatsiyaning sabablarini va uning pedagogik faoliyatga salbiy ta'sirini tahlil qilish. | **3 daqiqa – Tushunish va rejalashtirish**<br>Kasbiy pedagogik deformatsiyaning 3 ta asosiy sabablarini tanlang.<br>Ularning mohiyatini o'ylab ko'ring va qisqacha izohlashga tayyorlaning. |
| | **2 daqiqa – Amalga oshirish**<br>Tanlangan 3 ta sababni yozing.<br>Har birining o'qituvchi kasbiy faoliyatiga qabday ta'siri borligini qisqacha tushuntiring. |
| | **1 daqiqa – Xulosa chiqarish**<br>Ushbu sabablar orasidan eng muhim deb hisoblanganingizni tanlang v anima uchun ekanligini izohlang. |

*4-ilova*

**Talabalarga "Muammoli vaziyat" metodi orqali ma'lumotlarni tarmoqlash, bog'liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o'tadi.**

Strategiya talabalarni o'rganilayotgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini o'rganish, yechimlarini topishga undash orqali ularda muayyan ko'nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlar jarayonida "Muammoli vaziyat" strategiyasini qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlarni shakllantirish

Muammoli vaziyat mazmuni bilan talabalarni tanishtirish

Talabalarni kichik guruh (juftlik)larga ajratish

Guruh (juftlik)lar tomonidan muammoli vaziyat yechimini topish bo'yicha amaliy faoliyatning tashkil etilishi

Guruh (juftlik)lar tomonidan muammoli vaziyat yuzasidan o'z yechimlarining bayon qilinishi

Guruh (juftlik)larning yechim borasidagi fikrlarini umumlashtirish

Guruh (juftlik)lar tomonidan taqdim etilgan yechimlarning maqbullik darajasini o'rganish (ommaviy muhokama qilish, ekspertlar muhokamasidan o'tkazish)

Eng to'g'ri, maqbul yechimni aniqlash

*5-ilova*

**Kasbiy pedagogik deformatsiyaning mohiyati yuzasidan "Savol-javob" metodi orqali tahlil qilish.**

Metod mavzuning talabalar tomonidan o'zlashtirilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo'llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga doir bo'lishiga bog'liq.

Ta'lim jarayonida metodni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikatsiya muammolari yoritilgan mavzu yuzasidan savollar tayyorlaydi

O'qituvchi savollarni talabalarning e'tiborlariga havola etadi

Talabalar berilgan savollarga javob qaytarish orqali mavzuni o'zlashtirganlik darajasini namoyish etadi

O'qituvchi talabalarning savol-javobdagi ishtiroklarini tahlil qilib, baholaydi va mashg'ulotga yakun yasaydi

**Savollar**

- Kasbiy pedagogik deformatsiya deganda nimani tushunasiz?
- Kasbiy pedagogik deformatsiyaning asosiy sabablari nimalardan iborat?
- Kasbiy pedagogik deformatsiyaning belgilari qanday bo'ladi?
- Kasbiy pedagogik deformatsiyaning o'qituvchining shaxsiy hayotiga ta'siri qanday bo'ladi?
- O'qituvchining kasbiy deformatsiyasining oldini olish uchun qanday metodlardan foydalanish mumkin?
- Kasbiy pedagogik deformatsiyani oldini olishda pedagogning o'zini-o'zi tahlil qilish va professional rivojlanishning roli qanday?
- Kasbiy pedagogik deformatsiyaning pedagogik faoliyatga qanday salbiy ta'siri bo'ladi?
- Kasbiy pedagogik deformatsiyaning oldini olishda muhim bo'lgan psixologik yondashuvlar qanday?

*6-ilova*

**Pedagogik faoliyatda kasbiy pedagogik deformatsiyaning vazifalarini FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.**

**Jadvalni to'ldiring**

**1-guruh**

| "FSMU" metodi | |
|---|---|
| **Savollar** | **O'qituvchining kasbiy deformatsiyaga uchrashiga olib keladigan asosiy omillar nimalardan iborat?** |
| **(F) Fikringizni bayon eting** | |
| **(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating** | |
| **(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring** | |
| **(U) Fikringizni umumlashtiring** | |

**2-guruh**

| "FSMU" metodi | |
|---|---|
| **Savollar** | **O'qituvchining pedagogik metodlarini yangilash kasbiy deformatsiyani qanday oldini olishga yordam beradi?** |
| **(F) Fikringizni bayon eting** | |
| **(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating** | |
| **(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring** | |
| **(U) Fikringizni umumlashtiring** | |

**KROSSVORD**



## Krossvord savollari:

### Eniga

**3.** Kasbiy faoliyatning mazmuni xodimlarning u yoki bu vazifani bajarishlari bilan emas, balki organizmni kasbning ma'lum jihatlariga moslashishi bilan bog'liqdir - deya fikr bildirgan olim kim?

**4.** E.F.Zeerva, E.Ye.Somanyuklarning tadqiqotlariga ko'ra, kasbiy deformatsiya necha xil ko'rinishda amalga oshadi?

**5.** "Inson ehtiyojlari piramidasi"ni ishlab chiqish bilan mashhur bo'lgan pedagog olim kim edi?

**6.** Birinchi marta "professional deformatsiya" atamasi kim tomonidan salbiy ta'sir belgisi sifatida kiritilgan?

**7.** Ko'pincha shaxsdagi salbiy o'zgarishlarni tasniflashda qanday atamadan keng foydalanib kelingan?

### Bo'yiga

**1.** Uzoq yillar davomida olib borilgan kasbiy faoliyat natijasida ma'lum bir kasbiy muhim, ba'zan nomuhim xususiyatlar ham shakllanishi mumkin deformatsiya?

**2.** Lotinchadan "buzilish", "o'zgarish" tarjimasini berib bu tashqi va ichki ta'sirlar natijasida tana shakli va funksiyalarining o'zgarishidir, degan ma'noni anglatuvchi so'z qaysi edi?

## Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-80-son 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida"gi Farmonida pedagoglarga xos bo'lgan qanday maqsad muhim vazifa sifatida belgilanadi?**

A) "pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish"
B) "pedagogika sohasiga yangi kadrlar yetishtirib berish"
C) "chet el davlatlarida qiyos olgan holda kadrlarni qayta tayyorlash"
D) "pedagog kadrlarning tajribasini yanada oshirish"

**2. Kasbiy deformatsiya masalasi nechanchi yillarda o'rganila boshlangan?**

A) XXasrdayoq
B) XX asrning 20-30 yillarida
C) XX asrning o'rtalarida
D) XX asrning oxirida

**3. "Deformatsiya" so'zining ma'nosi?**

A) birlashtirish
B) barpo etish
C) buzulish
D) tayyorlash

**4. Kasbiy faoliyatda tashqi va ichki omillar ta'siri natijasida mutaxassisning kognitiv, xulq-atvor va motivatsion sohasida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlar?**

A) shaxsiy deformatsiya
B) ijtimoiy deformatsiya
C) ijobiy deformatsiya
D) kasbiy deformatsiya

**5. Organizmga ta'sir etuvchi va unda muhim xarakter xususiyatini hosil qiluvchi o'zgarish sifatida talqin qilinuvchi tushuncha?**

A) deformatsiya
B) psixalogiya
C) faoliyat
D) ijtimoiy jamoa

**6. Birinchi marta "professional deformatsiya" atamasi kim tomonidan salbiy ta'sir belgisi sifatida kiritilgan?**

A) S. G. Gellershteyn
B) Pitirim-Sorokin
C) A. K. Markova
D) E. F. Zeer

**7. Pedagoglar va boshqa ijtimoiy ishchilarni ko'proq stressga duchor bo'lishi va bu charchoqlik, kasbiy deformatsiya kabi holatlarni keltirib chiqarishi haqida ilmiy ishlar olib brogan olim?**

A) S. G. Gellershteyn
B) Pitirim-Sorokin
C) Freudenberger H.J.
D) E. F. Zeer

**8. Qaysi olimning ishlari o'qituvchining ishdagi muvaffaqiyatsizliklari va bu muvaffaqiyatsizliklarning kasbiy deformatsiyaga olib kelishini ko'rsatib bergan?**

A) S. G. Gellershteyn
B) B.K. Davronov
C) Freudenberger H.J.
D) N.K.Turg'unov

**9. E.F.Zeerva E.Ye.Somanyuklarning tadqiqotlariga ko'ra, kasbiy deformatsiya necha xil ko'rinishda amalga oshadi?**

A) 4 xil
b) 5 xil
C) 2 xil
D) 6 xil

**10. "Inson- inson" tipidagi kasblarga xos bo'lgan deformatsiya?**

A) maxsus kasbiy deformatsiya
B) umumkasbiy deformatsiya
C) individuallashgan deformatsiya
D) kasbiy tipologik deformatsiya

### Mustaqil ta'lim topshirig'i

Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.

## 13-AMALIY MASHG'ULOT
## KASBIY PEDAGOGIK DEFORMATSIYANING KELIB CHIQISH SABABLARI VA RIVOJLANISHI



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**

- Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyat davomida yuzaga keladigan **pedagogik deformatsiyaning** kelib chiqish sabablarini tushuntirish;
- Kasbiy pedagogik deformatsiyaning rivojlanish bosqichlarini tushuntirib berish;
- Kasbiy pedagogik deformatsiyaning shaxsiy va professional hayotga ta'sirini chuqur tushunishga o'rgatish, ushbu holatlarning oldini olish bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**

- Kasbiy deformatsiyaning sabablari haqida chuqur bilimga ega bo'ladi;
- Deformatsiyaning rivojlanish bosqichlarini tushunib dastlabki charchoq, befarqlik, agressivlik, demotivatsiya, professional mazmunsizlik kabi belgilarning qanday ketma-ketlikda yuzaga kelishini anglaydi.
- O'zida va boshqalarda deformatsiya alomatlarini aniqlashga o'rganib real holatlar asosida tahlil qiladi, testlar va savolnomalar yordamida kasbiy charchoq belgilari aniqlanadi.

### Adabiyotlar:


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova. M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., -416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.




*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Kasbiy pedagogik deformatsiyaning kelib chiqish sabablari va rivojlanishi mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Kasbiy pedagogik deformatsiya nima?
2. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning kelib chiqishiga olib keladigan asosiy sabablardan biri nima?
3. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning rivojlanish bosqichlari qanday?
4. O'qituvchining kasbiy deformatsiyasi o'quvchilar bilan qanday munosabatlarga ta'sir qiladi?
5. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning oldini olish uchun qanday choralar ko'rilishi kerak?
6. Kasbiy pedagogik deformatsiya va professional burnout o'rtasidagi farqni tushuntiring.
7. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning rivojlanishini erta aniqlash uchun o'qituvchilar qanday belgilarni kuzatishi kerak?
8. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning psixologik omillari qanday?
9. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning oldini olishda jamoaviy ishning roli qanday?
10. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning ijtimoiy-psixologik oqibatlari qanday bo'lishi mumkin?

*3-ilova*

**Talabalarga "Idrok xaritasi" metodi orqali pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o'tadi.**



***Idrok xaritasi metodi (inglizcha: Concept Mapping Method) — bu talabalarning bilimlarini tizimli tashkil etish, yangi tushunchalarni chuqur anglash va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga yordam beruvchi vizual metodlardan biridir. Bu metod asosan grafik shaklda tushunchalar va ularning o'zaro aloqalarini aks ettirish orqali amalga oshiriladi.***

*4-ilova*

**"Case study (real vaziyatlarni tahlil qilish)" topshirig'i asosida mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash.**

**Case mazmuni:** Sanjar — 35 yoshda, o'rta maktabda matematika fani o'qituvchisi. U maktabda 10 yildan buyon ishlaydi va o'z ishini sevadi. Ammo oxirgi 2 yil ichida uning ishiga bo'lgan qiziqishi pasayib, o'zini charchagan va umidsiz his qila boshladi. Sanjar har kuni darsdan keyin uyga ko'p kech qolib ketadi, doimiy ravishda ishda stress va ortiqcha yuklanishni sezadi. U o'quvchilarga nisbatan qiziqishning kamayganini, shuningdek o'quvchilarning ta'limi haqida fikrlarini faqat formal tarzda bildirishini tushunib yetadi. O'quvchilarni xatolaridan ogohlantirishda ko'proq qat'iyatli bo'lib qolgan, lekin bunga qaramay dars jarayonida o'zi ham to'liq motivatsiyaga ega emas.

**Savollar (tahlil uchun):**

**1.** Kasbiy pedagogik deformatsiyaning boshlanishiga nima sabab bo'ladi?
**2.** Sanjar o'z ishiga befarq bo'lishi va darslarda hissiy qat'iyatni yo'qotishning qanday bosqichlari mavjud?
**3.** Kasbiy pedagogik deformatsiyaning o'quvchilar bilan munosabatlarga qanday ta'siri bor?
**4.** O'qituvchining kasbiy deformatsiyasini oldini olish uchun qanday profilaktik chora-tadbirlar zarur?
**5.** Sanjarning kasbiy deformatsiyasi uning shaxsiy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
**6.** O'qituvchining kasbiy deformatsiyasi o'quvchilarning ta'lim darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
**7.** Kasbiy pedagogik deformatsiyaning o'qituvchining professional hayotidagi salbiy oqibatlarini qanday tasvirlash mumkin?

*5-ilova*

**Pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishni «BOHO» metodi orqali tahlil qiling.**

Mashg'ulotlar jarayonida metoddan foydalanishda quyidagi savollarga javob topgan holda mavzuni samarali o'zlashtirish imkonini beradigan omillarning ro'yxatini tuzib olish maqsadga muvofiqdir:



Mavzuni o'zlashtirishda qaysi omillar hisobga olindi?

Mavzuni o'zlashtirishda qanday omillar hisobga olinmadi?

Ro'yxatga yana qanday omillarni kiritish mumkin?

Masalaning yana qaysi jihatlariga e'tibor berish zarur?

?

*6-ilova*

**Talabalarga "Rezyume" strategiyasi murakkab, ko'p tarmoqli va muammoli vaziyatlarni o'zlashtirgan bilimlari yordamida hal qilishlari aytib o'tadi.**

Strategiya talabalar tomonidan murakkab, ko'p tarmoqli va muammoli mavzularning samarali o'zlashtirilishi uchun xizmat qiladi. Unga ko'ra mavzularning band yoki bo'limlari bo'yicha axborot berilib, har biri o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini yorituvchi alohida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida o'quv materialining mohiyatini yorituvchi asosiy tushuncha, muhim qoidalarning mazmuni, ilmiy bilimlarni o'zlashtirishdagi ahamiyati, murakkablik darajasi va amaliy qiymati kabi holatlarga e'tibor qaratiladi.

Bu strategiya o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, izlanish, mavzudan kelib chiqqan holda o'quv muammosining yechimini topish, zarur xulosalar chiqarish, oqilona qarorlar qabul qilish, jamoaga samarali ta'sir etish, mavzu bo'yicha egallangan bilimlarni bevosita amalda qo'llay olishga o'rgatadi.

Mashg'ulotlarda strategiyadan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

O'qituvchi talabalarni strategiya mohiyati va qo'llash shartlari bilan tanishtiradi.

O'qituvchi talabalarni ularning soniga qarab guruhlarga ajratadi.

Har bir guruhga tavsiya etilgan muammoning yechimini topishga oid topshiriq beradi.

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (8-10 daqiqa) belgilanadi.

Har bir guruh topshiriqni bajarishda o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan sxema asosida ish ko'radi.

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhning bir nafar a'zosi topshiriqning yechimi bo'yicha ishlanmalarni namoyish qiladi (taqdimotda yechimning "Xulosa" qismi bayon etilmaydi)

O'qituvchi boshqa guruhlardan o'z yechimini taqdim etgan guruhning xulosasi yuzasidan fikr bildirishni so'ravdi.

Guruhlarning fikrlari tinglangach, yechimni taqdim etgan guruh o'z xulosasini bayon qiladi.

O'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikr (xulosa)larga izoh berib, ularni baholaydi.

O'qituvchi mashg'ulotni yakunlaydi.

| Asosiy muammo: | | | |
|---|---|---|---|
| № | Xususiy muammolar | Yechimlari | Natija |
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |
| Xulosa: | | | |

## KROSSVORD





### Krossvord savollari:

**Eniga**

1. ....... - deformatsiya natijasida rahbar samarasiz va tez jazolanadigan zolimga aylanganda?

4. ....... - ish shunchalik ko'p singib ketganda, psixologik himoya to'sig'i tushib qolsa, odam yonib ketadi va hayotning ma'nosini ko'rmaydi.

5. Birinchi marta "professional deformatsiya" atamasi kim tomonidan salbiy ta'sir belgisi sifatida kiritilgan?

6. Uzoq yillar davomida olib borilgan kasbiy faoliyat natijasida ma'lum bir kasbiy muhim, ba'zan nomuhim xususiyatlar ham shakllanishi mumkin deformatsiya?

**Bo'yiga**

2. Deformatsiyaning dastlabki shartlarini belgilang?

3. (lotincha "deformation" – "buzilish", "o'zgarish") bu tashqi va ichki ta'sirlar natijasida tana shakli va funksiyalarining o'zgarishidir, degan ma'noni anglatuvchi so'z?

### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. Bu kasbiy deformatsiyaning dastlabki shartlari va namoyon bo'lish ehtimolini kamaytirishga qaratilgan profilaktika choralari majmui?**

A) Kasbiy deformatsiyaning oldini olish
B) Kasbiy deformatsiyaga yunaltirish
C) Deformatsiyani kasbga moslashtirish
D) Kasbiy deformatsiyani rivojlantirish

**2. Kasbiy deformatsiya masalasi nechanchi yillarda o'rganila boshlangan?**

A) XX asrdayoq
B) XX-asrning 20-30 yillarida
C) XX- asrning o'rtalarida
D) XX-asrning oxirida

**4. "Deformatsiya" so'zining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

A) birlashtirish
B) barpo etish
C) buzilish
D) tayyorlash

**5. Organizmga ta'sir etuvchi va unda muhim xarakter xususiyatini hosil qiluvchi o'zgarish sifatida talqin qilinuvchi tushuncha qaysi edi?**

A) deformatsiya
B) psixologiya
C) faoliyat
D) ijtimoiy jamoa

**6. "Inson-inson" tipidagi kasblarga xos bo'lgan deformatsiya turi bu – ?**

A) maxsus kasbiy deformatsiya
B) umumkasbiy deformatsiya
C) individuallashgan deformatsiya
D) kasbiy tipologik deformatsiya

**7. Konkret metod va metodikalarni chuqur o‘zlashtirish shaxsning kasbga doir deformatsiyasini oldini olishga yordam beradi. Bunday shaxsga doir deformatsiyalarga qanday sindromni kiritish mumkin?**
A) “kuyib ado bo‘lish”
B) “kasbga moslik”
C) “kasbidan zerikish”
D) “xursandchilik”

**8. Qaysi olimning ishlari o‘qituvchining ishdagi muvaffaqiyatsizliklari va bu muvaffaqiyatsizliklarning kasbiy deformatsiyaga olib kelishini ko‘rsatib bergan?**
A) S. G. Gellershteyn
B) B.K. Davronov
C) Freudenberger H.J.
D) N.K.Turg‘unov

**9. “Inson ehtiyojlari piramidasini” ishlab chiqish bilan mashhur bo‘lgan pedagog olim kim edi?**
A) Sorokin
B) Susan
C) Maslow
D) Freudenberger H.J

**10. Inson o‘z kasbida yangi narsa qidirmaganda qanday holat bo‘ladi?**
A) Shaxsning moslashuv qobiliyatining pasayishi
B) Boshqaruv eroziyasi
C) Hissiy charchash
D) Ma’muriy zavqlanish hissi

**Mustaqil ta’lim topshirig‘i**



Izbullaeva Gulchehra Valerievna “Mutaxassislikka kirish” 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 “DURDONA” nashriyoti 2023.-240 b.



O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – Termiz.: “ILM-21” nashriyoti, 2024 yil 218 bet



## 14-AMALIY MASHG‘ULOT
## KASBIY-PEDAGOGIK DEFORMATSIYANING O‘QITUVCHILIK FAOLIYATIGA TA’SIRI



**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:**
- Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik deformatsiyaning o‘qituvchilik faoliyatiga salbiy ta’sirini aniqlash;
- Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning kasbiy samaradorlik, shaxsiy salomatlik va o‘quvchi bilan munosabatga bo‘lgan ta’sirini tushunish,
- Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.



**Amaliy mashg‘ulotda kutiladigan natija:**
- Kasbiy-pedagogik deformatsiya tushunchasining o‘qituvchidagi emotsional, kommunikativ va axloqiy sifatlariga qanday ta’sir qilishini tushunadi.
- Deformatsiyaning o‘qituvchilik faoliyatidagi oqibatlarini tahlil qilib motivatsiyaning pasayishi, dars sifati yomonlashuvi, o‘quvchi bilan ijtimoiy-psixologik masofaning ortishi kabi ta’sirlarni o‘rganadi.
- Real holatlar asosida kasbiy deformatsiyani aniqlab o‘qituvchilarda uchraydigan konkret muammolar misolida kasbiy deformatsiya belgilari ustida ishlaydi.
- Pedagogik faoliyatda deformatsiyaga olib keluvchi omillarni tahlil qiladi.

**Adabiyotlar**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: “DURDONA” nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O‘quv qo‘llanma. – Termiz.: “ILM-21” nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: “SANO-STANDART” nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: “Sahhof”, 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. “Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligining omili” Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi. 2010. – 424 bet.

7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.
8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.

*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Kasbiy pedagogik deformatsiyaning o'qituvchi faoliyatiga ta'siri mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Kasbiy pedagogik deformatsiya nima va uning o'qituvchilik faoliyatiga qanday ta'siri bor?
2. Kasbiy pedagogik deformatsiya ruhiy va o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan munosabatiga qanday ta'sir qiladi?
3. Kasbiy pedagogik deformatsiya o'qituvchining professional faoliyati va ta'lim darajasiga qanday salbiy ta'sirlar ko'rsatadi?
4. O'qituvchining kasbiy deformatsiyasini erta aniqlash uchun qanday belgilarga e'tibor qaratish kerak?
5. Kasbiy pedagogik deformatsiya o'qituvchining shaxsiy hayotiga qanday ta'sir qiladi?

*3-ilova*



***"Puzzle" metodi mavzuga oid atama, jumla, ta'rif, asosiy ma'lumotlar qog'ozga yozilib, bir nechta bo'laklarga bo'lib, aralashtirilib yuboriladi va bu qog'ozlar konvertga solinib guruhlarga beriladi. O'qituvchi tomonidan vaqt belgilangandan so'ng talabalar bu bo'laklar ichidan faqat bitta ma'lumotga moslarini topib, uni tiklaydilar.***

*4-ilova*



"Tadqiqot guruhi" metodi asosida talabalar 2 guruhga bo'linadi. Har bir guruh ma'lum innovatsion-pedagogik faoliyat haqida tadqiqot olib borishini tushuntirib o'tadi.

| | |
|---|---|
| *Guruhlarga topshiriqlar* | "Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning o'qituvchining shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siri" |
| | "Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'siri" |

*5-ilova*

**"3-2-1 Tezkor" metodi talabalarning tezkor va aniq javob berish qobiliyatini rivojlantiramiz.**




***Bu metod o'quvchilarning tezkor fikrlash, aniqlik bilan javob berish va vaqtni samarali boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu yondashuv qisqa vaqt ichida ma'lumotni tushunish, uni qayta ishlash va xulosa chiqarish imkonini beradi.***

| | |
|---|---|
| **Topshiriq:** Kasbiy pedagogik deformatsiyaning o'qituvchi kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sirini tahlil qilish. | **3 daqiqa – Tushunish va rejalashtirish**<br>Kasbiy pedagogik deformatsiyaning o'qituvchi faoliyatidagi 3 ta asosiy salbiy ta'sirlarini tanlang.<br>Ularning mohiyatini o'ylab ko'ring va qisqacha izohlashga tayyorlaning. |
| | **2 daqiqa – Amalga oshirish**<br>Tanlangan 3 ta salbiy tomonini yozing.<br>Har birining o'qituvchi kasbiy faoliyatiga qanday salbiy ta'siri borligini qisqacha tushuntiring. |
| | **1 daqiqa – Xulosa chiqarish**<br>Ushbu salbiy ta'sirlari orasidan eng muhim deb hisoblanganingizni tanlang va nima uchun ekanligini izohlang. |

*6-ilova*

**Kasbiy pedagogik deformatsiyaning o'qituvchi kasbiy faoliyatiga ta'siri mavzusini "Modellashtirish" metodi orqali tahlil qiling.**

"Modellashtirish" ("modulus" – o'lchov, meyor) metodi talabalarda o'zlashtirilgan mavzu, masala yoki hal qilingan muammo yuzasidan mantiqiy fikrlash, mavzu, masala yoki hal qilinayotgan muammoning umumiy mohiyatini model (shartli belgi)lar yordamida ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uni qo'llashda tanlangan obekt mohiyati, muhim xususiyatlari, ustuvor jihatlarini to'la ochib berishga alohida e'tibor qaratiladi.

**Mashg'ulotda metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**

Talabalar mavzu (masala, muammo) mohiyatini puxta anglab oladi

Talabalar mavzu (masala, muammo) mohiyatini to'laqonli ifoda etadigan asosiy jihatlar, tayanch tushunchalarni ajratadi

Tayanch tushunchalar yordamida umumiy model yaratiladi

Har bir talaba model yordamida o'rganilgan mavzu (masala, muammo)ning mohiyati to'g'risida jamoaga ma'lumot beradi

Har bir talaba tomonidan taklif etilgan modelning maqsadga muvofiq yaratilganligi, mavzu (masala, muammo) mohiyatining ochib berilishi jamoa tomonidan muhokama qilinadi

## KROSSVORD



### Krossvord savollari:

**Eniga**

2. O'qituvchining pedagogik faoliyatining uzoq muddatli davom etishi natijasida yuzaga keladigan ruhiy va emotsional salbiy o'zgarishlar majmui?
3. Nechanchi yilga kelib, kasbiy pedagogik deformatsiya haqidagi ilmiy qarashlar yanada kengayib, kasbiy stress va charchoqni o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borildi?
4. O'qituvchining jismoniy va ruhiy holatidagi charchoq, qoniqishning pasayishi, va o'z ishiga bo'lgan ishtiyoqning kamayishi holati?
5. 1930-1950-yillarda kasbiy deformatsiyaning ilk ilmiy tushunchalarining ilk ilmiy asoslarini yaratgan olimlardan biri — nemis psixolog va pedagogi kim edi?
6. Kasbiy pedagogik deformatsiya konsepti o'zining ilmiy asoslarini qachon boshlaydi?

**Bo'yiga**

1. "Burnout" (kasbiy charchoq) fenomenini aniqlagan va uni o'qituvchilar va boshqa kasblarda qanday paydo bo'lishi haqida chuqur tahlillarni amalga oshirishgan pedagoglar kim?
2. Qanday tadqiqot — bu ijtimoiy, tabiiy yoki boshqa sohalarda hodisalarni o'lchash, tahlil qilish va statistik usullar orqali natijalarni chiqarish uchun ishlatiladigan tadqiqot metodidir?



### Mavzu yuzasidan test topshiriqlari

**1. O'qituvchilarga psixologik yordam va stressni boshqarish bo'yicha treninglar va seminerlar tashkil etish, shuningdek, o'zaro psixologik yordam tizimlarini rivojlantirish?**

A) Psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratish
B) Kasbiy motivatsiyani oshirish
C) Ish sharoitlarini yaxshilash
D) Doimiy malaka oshirish

**2. Maslachning tadqiqotlari kasbiy burnoutning uchta asosiy komponentini belgilagan. Bular?**

A) stressni boshqarish
B) psixologik salomatligini
C) emotsional charchoq
D) ruhiy holati

**3. Qanday metod yordamida o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik deformatsiyasi bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar o'rganiladi va ularning sabab va oqibatlari statistika yordamida tahlil qilinadi?**

A) Kvantitativ
B) Analiz
C) Regressiya tahlili
D) Statistik tahlil

**4. Qaysi metod yordamida o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik deformatsiya holatining vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini tahlil qilish mumkin?**

A) Longitudinal metod
B) Regressiya tahlili
C) Kvantitativ
D) Statistik tahlil

**5. Kasbiy-pedagogik deformatsiya profilaktikasini o'rganishda ........ qo'llanilishi mumkin. Nuqtalar o'rniga mos keluvchi metod qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?**

A) Longitudinal tadqiqot

B) Regressiya tahlili
C) Tajribaviy metod
D) Statistik tahlil

**6. Bu metod ijtimoiy, tabiiy yoki boshqa sohalarda hodisalarni o'lchash, tahlil qilish va statistik usullar orqali natijalarni chiqarish uchun ishlatiladigan tadqiqot metodidir?**
A) Longitudinal tadqiqot
B) regressiya tahlili
C) Tajribaviy metod
D) Kvantitativ tadqiqot

**7. Nechanchi yillarga kelib, kasbiy pedagogik deformatsiya haqidagi ilmiy qarashlar yanada kengayib, kasbiy stress va charchoqni o'rganishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar olib borildi?**
A) 1975
B) 1960
C) 1974
D) 1965

**8. 1930-1950-yillarda kasbiy deformatsiyaning ilk ilmiy tushunchalarining ilk ilmiy asoslarini yaratgan olimlardan biri?**
A) Georg Kershenstein
B) Frederic Herzberg
C) Wilfred Bion
D) Maslach

**9. O'qituvchining pedagogik faoliyatining uzoq muddatli davom etishi natijasida yuzaga keladigan ruhiy va emotsional salbiy o'zgarishlar majmui?**
A) Pedagogik samaradorlikning pasayishi
B) Ta'lim sifatining pasayishi
C) Kasbiy-pedagogik deformatsiya
D) O'qituvchilarning ruhiy va jismoniy salomatligiga ta'siri

**10. Qaysi tadqiqotda sonli ma'lumotlar (masalan, raqamlar, foizlar, o'lchovlar, statistika va hokazo) to'planadi va bu ma'lumotlar orqali hodisalar yoki jarayonlar o'rtasidagi munosabatlar, qonuniyatlar yoki tendensiyalar aniqlanadi?**
A) Kvantitativ
B) Longitudinal
C) Tajribaviy
D) Statistik

**Mustaqil ta'lim topshirig'i**



Izbullaeva Gulchehra Valerievna "Mutaxassislikka kirish" 1-qism. Darslik. BUXORO-2023 "DURDONA" nashriyoti 2023.-240 b.



## 15-AMALIY MASHG'ULOT
## KASBIY PEDAGOGIK DEFORMATSIYANING PROFILAKTIKASI



**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:**
- Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik deformatsiyaning oldini olish (profilaktikasi) bo'yicha zarur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- Professional barqarorlik, psixologik salomatlik, ijobiy munosabat va emotsional boshqaruvga asoslangan faoliyat yuritish malakasini rivojlantirish.



**Amaliy mashg'ulotda kutiladigan natija:**
- Kasbiy-pedagogik deformatsiyaning oldini olish tushunchasining mazmun-mohiyatini tushunadi;
- Deformatsiyaga olib keluvchi xavf omillarini aniqlaydi: doimiy stress, haddan tashqari yuklama, emotsional toliqish, kommunikativ qiyinchiliklar kabi omillarni aniqlab tahlil qiladi.
- Kasbiy sog'lom muhit yaratish usullarini o'rganadi, sog'lom muloqot, ijobiy jamoa muhiti, hamkasblar bilan qo'llab-quvvatlov, kasbiy refleksiya qilish kabi jihatlarni amalda qo'llaydi.
- Stress va charchoqni yengish bo'yicha amaliy mashqlar bajaradi: relaksatsiya, nafas olish texnikasi, vizualizatsiya, "MBI" metodikasi orqali deformatsiyadan saqlanishni o'rganadi.

**Adabiyotlar**


1. Izbullaeva Gulchehra Valerievna. Mutaxassislikka kirish. 1-qism. Darslik BUXORO-2023.: "DURDONA" nashriyoti., 2023. – 240 bet.
2. O.E.Soatov, D.M.Olimov, D.B.Xurramova, Sh.A.Mamatqobilova, M.O.Omonturdieva. Mutaxassislikka kirish. O'quv qo'llanma. – Termiz.: "ILM-21" nashriyoti., 2024. – 218 bet.
3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: "SANO-STANDART" nashriyoti., 2017. – 418 bet.
4. Ibrohimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik-T.: "Sahhof", 2023., - 416 bet.
5. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligining omili" Monografiya. Toshkent.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. –184 bet.
6. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi. 2010. – 424 bet.
7. Ro'zieva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYa-ZIYo, 2019. – 276 bet.

8. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2006. – 161 bet.
9. Jamie P.Halsall, Michael Snowden. The pedagogy of the Social Sciences Curriculum. Springer International Publishing Switzerland 2017. 134 page.
10. Robyn Brandenburg. Powerful Pedagogy. Self-Study of a Teacher Educator's Parctice. Springer Nature Science Press 2008. 217 page.
11. Linda Daniela "Didactics of smart pedagogy". Springer Nature Switzerland AG Press 2019 496 page.


*1-ilova*

**Talabalarni baholash mezonlari:**

- mavzu rejasidagi masalalarni konspektlashtirish – 0,2 ball;
- topshiriqlarni bajarish va savol-javoblarda ishtirok etish – 0,6 ball;
- mustaqil ta'limni bajarish – 0,2 ball.

*2-ilova*

**Kasbiy pedagogik deformatsiyaning profilaktikasi mavzusiga doir blits-so'rov savollari**

1. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning oldini olish nima sababdan muhim?
2. Ish va shaxsiy hayot muvozanatini qanday ta'minlash mumkin?
3. Profilaktika deganda nimani tushunasiz?
4. Kasbiy deformatsiyani oldini olishda jamoaviy ishning o'rni qanday?
5. Ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlashda psixologik xizmatlarning vazifasi nimada?
6. O'qituvchining kasbiy motivatsiyasi qanday saqlab qolinadi?
7. O'qituvchiga dam olish vaqti qanday foyda beradi?
8. Ijobiy muhit kasbiy deformatsiyaga qarshi qanday ta'sir ko'rsatadi?
9. O'z-o'zini tahlil qilish (refleksiya) kasbiy sog'lomlikda qanday rol o'ynaydi?

*3-ilova*

**Talabalarga "Tarmoqli tafakkur" metodi orqali ma'lumotlarni tarmoqlash, bog'liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilishlarini aytib o'tadi.**



***bu interfaol metod bo'lib, talabalar o'quv mavzusi bo'yicha ma'lumotlarni tarmoqlash, bog'liqliklarni aniqlash va mantiqiy zanjir hosil qilish orqali tushunchalarni chuqurroq anglashlariga yordam beradi. Ushbu metod puzzlga o'xshash bo'lib, lekin bunda bo'laklarni joyiga qo'yish emas, balki ularni o'zaro bog'lash va keng tarmoqqa aylantirish jarayoni amalga oshiriladi.***

*4-ilova*

**Talabalarda "Reja" metodi orqali kreativ qobiliyat shakllantiriladi.**



Metod talabalar tomonidan muayyan bo'lim yoki boblar bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo'llash talabalardan o'rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o'zlashtirish, asosiy g'oyalarni umumlashtirish, ma'lum tizimga solish layoqatiga ega bo'lishni taqozo etadi. Metod talablar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi.

Uni ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo'llash yanada samarali hisoblanadi.

